



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

O'zbekiston tarixi kafedrası

RAJABOV NORBEK G'ANIYEVICH ning

5220200 Tarix (Mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“Sirdaryo viloyati sovet mustamlakachiligi va
mustaqillik yillarida”**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

t.f.n. N.Quvvatova

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix fakulteti dekani:

_____ t.f.n. **A.Hasanov**

“ ” _____ 2014 y.

Qarshi shahri – 2014

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-Bob. Sirdaryo viloyatining joylashgan o‘rni va aholisi.	
1.1. Sirdaryo viloyatining tabiiy-geografik o‘rni va demografiyasi.....	5
1.2. Sirdaryo viloyati tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi.....	15
1.3. Sirdaryo viloyatining madaniy hayoti tarixidan.....	38
II-Bob. Sovet hukmronligi va mustaqillik yillarida Sirdaryo viloyati.	
2.1.Sirdaryo viloyatining sovet hukmronligi davri tarixidan.....	47
2.2.Mustaqillik yillarida Sirdaryo viloyatida amalga oshirilgan islohotlar va uning natijalari.....	51
Xulosa.....	59
Adabiyotlar ro‘yxati.....	61
Ilovalar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini yangi konseptual –metodologik asosda tadqiq etish, turli ilmiy muammolarni asl manbalarga tayangan holda tahlil qilish muhim masalaga aylandi.

Respublikamiz mustaqilligi sharofati bilan milliy davlatchiligimiz tarixini, boy madaniy merosimizni chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Prezidentimiz I.A. Karimov: «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'llarimizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbqiq etmog'imiz kerak», deya ta'kidlaydilar¹.

Darhaqiqat, o'zbek xalqi tarixi, o'zbek davlatchiligi tarixi, madaniy hayotning rivojlanishi shaharlar tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu bog'liqlik mustaqillik yillarida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Misol uchun, so'nggi yillarda turli shaharlarning yubileyleri munosabati bilan o'tkazilgan maxsus ilmiy-tadqiqotlar va olimlarimizning chet ellik hamkasblari bilan hamkorlikdagi ishlari O'rta O'siyo, xususan O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri ekanligini isbotlamoqda. Ushbu sivilizatsiya tizimida Sirdaryo shahrining tarixi, madaniyati va uning davlatchilik taraqqiyotidagi ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, ushbu jarayonlarni o'rganish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning quyidagi fikri bu tarixiy haqiqatning lo'nda ifodasidir: “Shu nuqtai-nazardan qaraganda, biz o'z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu fani va madaniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimiz darkor”².

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T., «O'zbekiston, 1996. 176-bet.

² Karimov I. A Yuksak ma'anaviyat-yengilmas kuch. Toshkent, Ma'naviyat, 2008 yil –B.52.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Sirdaryo viloyatining sovet mustamlakachiligi va mustaqillik yillariga doir ma'lumotlarni manbalar asosida xolisona o'rganishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Sirdaryo viloyatining joylashgan o'рни va aholisi masalasini tahlil qilish;
- Sirdaryo viloyatining tabiiy-geografik o'рни va demografiyasini yoritish;
- Sirdaryo viloyati tarixi tarixshunosligi va manbashunosligini bayon qilish;
- Sirdaryo viloyatining madaniy hayoti tarixiga doir ma'lumotlarni tahlil qilish;
- Sovet hukmronligi va mustaqillik yillarida Sirdaryo viloyati tarixini yoritish;
- Sovet hukmronligi yillarida Sirdaryo viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini asoslash;
- Mustaqillik yillarida Sirdaryo viloyatida amalga oshirilgan islohotlar va uning natijalarini tahlil qilish.

BMIning ilmiy-amaliy ahamiyati. Ishda ilk bor Sirdaryo viloyatining sovet mustamlakachiligi va mustaqillik yillariga doir ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarga tayangan holda bajarilganligida ko'rinadi. Sirdaryo viloyatining sovet mustamlakachiligi va mustaqillik yillariga doir tarixi turli manba va adabiyotlardan foydalanib asoslab beriladi.

Izlanish natijasida qo'lga kiritilgan yakuniy xulosalardan O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda, o'quv qo'llanma va dasturlar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ishning aprobatsiyasi. BMI Qarshi Davlat universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrası huzuridagi "O'lkashunoslik" to'garagida muhokama etilib, himoyaga tavsiya etilgan.

Ishning hajmi va strukturasi. Kirish, 2 ta bob, 5 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 67 sahifani tashkil qiladi.

I. Sirdaryo viloyatining joylashgan o‘rni va aholisi

1.1. Sirdaryo viloyatining tabiiy-geografik o‘rni va demografiyasi

Turkiston tog‘ tizmalarining shimolidagi hududlar geografik o‘rni, tabiati, iqlimiga ko‘ra inson yashashi uchun qulay yerlardan biri bo‘lib qadimdan bu joylarda odamlar istiqomat qilib kelishgan.

Sirdaryo xavzasiga ko‘chmanchi qabilalarning kirib kelish davri VI-VII asrlarda yuz bera boshladi. Sirdaryoning o‘rta oqimida S.G.Klyashtorniyning farazicha VII asrlarning o‘rtalarigacha pecheneglar¹ o‘rnashgan bo‘lib VIII asrning o‘rtalarigacha ijtimoiy turmushda muhim o‘rin tutganlar². Turk xoqonligi davrida (VI-VIII asrlar) bu yerlarda turkiy aholi yashaydigan etnohududlar kengayib bordi.

VIII-IX asrlarda qarluq va o‘g‘iz qabilalari Sirdaryo vohasiga kirib kelishadi. Sirdaryoning o‘rta sohillarida Mirzacho‘l atrofida o‘g‘iz ko‘chmanchi qabilalari hukmron mavqega ega buldilar. O‘g‘izlar Buyuk ipak yo‘li savdo sotiq ishlarida muhim o‘rin tutib, faoliyati havsizligini ta‘minlagan, karvonlarga xizmat ko‘rsatib, chorvachilik mahsulotlarini yetkazib berganlar A.A.Gritsinaning aytishicha, Gulistondagi Ulkan-soylik qo‘rg‘oni o‘g‘izlar qabilasi boshlig‘ining mozar-qo‘rg‘on bo‘lishi mumkin³.

K.Shoniyozovning yozishicha, turklarning bir qismi Oltoydan G‘arbga ko‘chishi jarayonida Dashti Qipchoq orqali Sirdaryoning quyi va o‘rta havzalariga yoyilgan qipchoqlardan iborat bo‘lgan va ular o‘g‘izlar bilan ixtilofiy xolatda bo‘lganlar. Qipchoqlarning bir guruhi «Xudud al-olam»da «andar az-qipchoq» deb atalgan. «Andar az-qipchoq»lar Sirdaryo bo‘ylarida yashovchi o‘g‘iz qabilalariga vaqti-vaqti bilan hujum qilib turganlar. Qipchoqlar hujumiga bardosh bera olmagan o‘g‘izlarning salmoqli qismi Sirdaryo bo‘ylarini tashlab g‘arbga ko‘chib ketishga majbur bo‘ldilar.¹ XI

¹ K.Shoniyozov pecheneglarni aslida bijanaklar deydi.- Qarang: K.Shoniyozov, 362-bet

² Древнетюркские рунические памятники М.1964 г.с 177-179

³ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Т., «Фан», 1992. С. 5

¹ K.Shoniyozov «O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni», T.:”Sharq”, 2001, 361-362 betlar

asr boshlarida qipchoqlar Sirdaryo o'rta qismini to'liq egallab «Sirdaryo bo'yi qipchoqlari» degan etnik uyushmani tashkil etgan, ularning tarkibiga bijanak (pecheneg), arg'u, tuxsi va o'g'iz etnik elementlari ham kirgan. Bular XI asrning birinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyoning Markaziy xudularidagi etnik uyushmalarga va siyosiy tuzilmalarga o'z ta'sirini o'tqazib ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadilar.

Aynan shu davrda Xorazmni yirik va mustahkam davlat darajasiga ko'tarishga intilgan xorazmshohlar Sirdaryo bo'ylaridagi qipchoqlar bilan ixtilofda bo'ldilar. Qipchoqlarning ayrim bo'laklari Xorazmshohlarga tobe bo'lsalarda, asosiy qismi Ayir-Tukixon boshchiligida kurashni davom ettiravergan. Xorazmshoh Muhammad 1200-1220 yillarda qipchoqlarga qarshi bir necha marotaba xarbiy yurishlar uyushtiradi, faqatgina 1215 yilda qipchoqlarga qattiq talofat yetkazadi va ular Sirdaryoning shimolidagi bepayon cho'lliklarga chekinishadi.

Bugungi kunda xalqimiz tarixiga doir tadqiqotlarda «o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi so'nggi bronza davriga oid», deb e'tirof etiladi². Akademik K.Shoniyozov «O'zbek elati IX-X asrlarda shakllandi»³, deb xisoblaydi. Akademik A.Asqarov esa «o'zbeklarning etnogenezi XI asrgacha davom etadi... XI-XII asrlarda o'zbek xalqi uzil kesil shakllandi»⁴, deb hisoblaydi.

Ushbu keltirilgan tarixiy dalillar qadimiy Ustrushona hududida o'zbek tilida so'zlashuvchi qorluq-chigil, qipchoq va o'g'iz laxzalariga xos urug'-qabilalarining qadimdan yashaganligini ko'rsatadi. Zomin tumani aholisining shakllanish tarixini tahlil etar ekan elshunos olim Tursunboy Salimov mazkur xududga qadimdan o'rnashgan qabilalar tarzida o'zbek turklari va qorluqlarni e'tirof etadi⁵. Xuddi shu o'rinda qayd etmoq lozimki,

² A.Asqarov. «O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi». T., «Universitet», 2007. 240-bet

³ K.Shoniyozov. O'zbek xalqlarining shakllanish jarayoni. T., «Sharq», 2001, 30-bet

⁴ A.Asqarov O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T., «Universitet», 2007. 10-bet

⁵ Древний Заамин.Т., «Фан», 1994 й. 76-78 с.

Tojikiston Respublikasi Istaravshan, Shahrison tumanlarida yashovchi o'zbek turklari ham qadimdan shu xududda istiqomat qilishgan. O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistonning tog'li tumanlarida istiqomat qiluvchi o'zbek turklari qadimdan bu hududlarda o'rnatib, sharqiy-eron tillarida so'zlashuvchi so'g'dlar bilan qorishib, o'z tillarini berganlar va o'zbek xalqining asoslarini yaratgan qavmlardan biridir.

Nurota tog' etaklarida unga tutash cho'llarda yashagan o'g'iz-saljuqlari asrlar davomida mahalliy etnoslar bilan yonma-yon yashaganlar, o'z navbatida, o'zbek etnik guruhlar tarkibiga kirib ketgan. Shuning uchun ham bo'lsa kerak keyingi avlodlari o'zlarini o'zbek turkmanlari yoki "Nurota turkmanlari" deb ataganlar, deydi akademik K.Shoniyozov¹. Zomin, O'ratepa tumanlarida Sirdaryo sohilida mavjud turkman qishloqlarida o'zbek turkmanlari istiqomat qilishayotgani o'g'iz etnik guri o'tmishidan nishonadir.

Turkiston tog' tizmalarida old qismida Xo'janddan Zominga qadar bo'lgan qishloqlar tarkibida Qipchoq, Xoldorqipchoq kabi etnonimlarning mavjudligi qipchoq etnik guruhlarining o'timishidan dalolat beradi.

O'zbek turklarida "turk-u tojik bir xalq" degan naql mavjud. Garchand Zomin tumanida tojik millatiga mansub aholi kamchilikni tashkil etsada, O'ra-tepa, Shahrison atrofidagi qishloqlarda o'zbek va tojik xalqlari birin ketin joylashgan qishloqlarda istiqomat qilishadi. Mazkur hududda istiqomat qiluvchi o'zbek va tojiklar ikki tilli etnoslar bo'lib, o'zaro suhbatlarda bir-birlarini bemalol tushuna oladilar, bozoru to'y- tantanalarida moddiy-ma'naviy madaniyatlarning deyarli barcha jabhalarida uyg'unliklar ko'p bo'lib, hattoki ko'p holatlarda quda-andachilikda ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur nuqtai nazardan tadqiqotlar davom etadi.

¹ K.Shoniyozov O'zbek xalqlarining shakllanish jarayoni. T., «Sharq», 2001 y. 398 bet.

Sirdaryo viloyati Mirzacho'l markazida joylashgan bo'lib, u 1963 yilda tashkil etilgan. Viloyat markazi Guliston shahri. Sirdaryo viloyati shimolda Qozog'iston, janubda Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh. Sirdaryo viloyatining yer maydoni 4,3 ming kvadrat kilometr bo'lib, 700 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Sirdaryo viloyati aholisini 60 foizini asosan o'zbeklar tashkil etadi. Shuningdek, qozoq, tojik, rus va boshqa 70 dan ortiq millat vakillari yashaydi. 1 kv. km.ga 159 kishi to'g'ri keladi.

Sirdaryo tarixi - xalqimiz tarixining uzviy bir qismi sifatida shonli va qadimiylidir. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da Sirdaryo «Danu» deb, qadimgi yunon tarixchilari asarlarida esa Yaxartes-Yaksart deb atalgan. Yurtimizga arablar kirib kelgandan so'ng bu daryo solnomalarda «Sayxun» deb yuritila boshlandi. O'zining egallagan o'rniga ko'ra viloyat So'g'dni Choch, Farg'ona orqali Xitoy bilan bog'laydigan muhim joyda joylashganligi sababli ham bu yerda qadimdan aholi yashab kelgan. Bu yo'llarda joylashgan aholi manzilgohlari savdo-sotiq va o'tib ketayotgan karvonlarni ta'minlash kabi ishlar sharofatidan gullab-yashnagan edi. Viloyat hududida 2,5-3 ming yillik tarixga ega bo'lgan Eski Xovos, Sag'anaktepa, Xontepa, Savot singari aholi manzilgohlari bo'lgan. Sirdaryo viloyati hududi ilk bor alohida o'lka - Ustrushona sifatida Xitoy yilnomalarida ilk o'rta asrlarda tilga olinadi. Qadimda viloyat aholisi Xo'jamushkentsoy, SHo'rbuloqsoy, Mo'g'ulsoy, Tag'obsoy, Sarmichsoy singari soy va chashmalar bo'ylarida hayot kechirishgan. Suv balansining buzilishi manzilgohlarning yo'q bo'lib ketishiga va aholining boshqa joyga ko'chib ketishiga sabab bo'lgan.

Sirdaryo viloyati - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1963 yil 16 fevralda tashkil etilgan. Shimoldan Qozog'iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi va g'arbdan

Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Jizzax viloyatining maydoni 5,3 ming kmni tashkil etadi. Sirdaryo viloyati tarkibida 9 ta Boyovut, Guliston, Mehnatobod, Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos, Sharof Rashidov kabi tumanlar bor.

Viloyatda 5 ta Guliston, Baxt, Sirdaryo, Shirin, Yangiyer nomli shaharlar mavjud. Shu bilan bir qatorda viloyatda 6 ta Boyovut, Dehqonobod, Do'stlik, Paxtaobod, Sayxun, Xovos shaharchalari va 75 qishloq fuqarolari yig'ini bo'lib, viloyatning markazi Guliston shahridir.

Sirdaryo viloyatining tabiati relyefi, asosan, to'liqinsimon tekislik bo'lib, janubdan shimoliy-g'arbga pasayib boradi. Mirzacho'l dashtining bir qismi viloyat hududiga kiradi. Balandligi shimolda 230 m, markaziy qismida 400—450 m, janubiy va janubiy-g'arbda 600—650 m. Sharqida keng Sirdaryo vodiysi joylashgan. Mezozoy va kaynozoy davrida, asosan, cho'kindi jinslarning qalin qatlami bilan qoplangan. SHO'ro'zak, Mirzarabot, Sardoba kabi botiqlar mavjud. Tekislik qismi daryolar oqizib keltirgan yotqiziqlardan hosil bo'lgan, ba'zi joylarini ko'l, botqoq va sho'rxok yerlar egallagan.

Sirdaryo viloyatida yangi kanallar, zovurlar qazilib, cho'l o'zlashtirildi va ekin maydonlarga aylantirildi. Tekislik qismida irrigatsiya inshootlari qurilib, paxtazor, bog' va tokzorlar barpo qilindi. Adirlar lalmikor yerlar va yaylovlardan iborat.

Sirdaryoning ob-havosi keskin o'zgaruvchan va quruq hisoblanadi. Yillik o'rtacha harorat 14°. Yanvarning o'rtacha harorati shimolda - 6°, janubda - 2°. Qishda havo tez soviydi va harorat - 30° gacha, xususan Gulistonda - 35° pasayadi. Ba'zan, qish o'rtalarida havo birdaniga isib, keyin sovib ketadi. Kech ko'klamda va erta kuzda ham qora sovuq tushib o'simlikning o'sish davrini qisqartiradi. Yozi quruq va issiq. Iyulning o'rtacha harorati 27—29°. Yozda haorat 32—45° gacha ko'tariladi.

Ko'pincha issiq shamol, garmsel tuproqni quritadi va o'simliklar rivojlanishiga yomon ta'sir qiladi. Vegetatsiya davri 218 kun. Yillik yog'in 180—220 mm, asosan, qishda yog'adi. Yozda kuchli bug'lanish sababli yer osti suvlari yuza maydonlarning Sharof Rashidov, Oqoltin, Guliston tumanlari tuprog'ini sho'r bosadi. Noyabrdan martgacha tez-tez esib turadigan «Bekobod shamoli» tezligi 20—25 m/sek., Boyovut tumanida 40 m/sek.ga yetadi. Bahorda esadigan bu xildagi shamol unib chiqayotgan g'o'zalarni ba'zan nobud qiladi. Keyingi yillarda ixota daraxtzorlari barpo qilindi. Tuproqlari, asosan, och tusli kuchsiz joylashgan bo'z tuproq bo'lib, kam va o'rtacha sho'rlangan, mexanik tartibiga ko'ra, qumoq va soz tuproklardir. Tekisliklarda sho'rxok va sho'rxoksimon tuproq uchraydi. Yer osti suvining chuqurligi 5—6 m. SHo'ro'zak massivida, hali o'zlashtirilmagan pastqam joylarda sho'rxoklar keng tarqalgan. Sug'oriladigan yerlarning 32% sho'rlangan, 25% kuchsiz sho'rlangan, 16% sho'rxoklardan iborat.

O'simliklardan lolaqizg'aldoq, boychechak, chuchmoma, qoqi yalpiz, ismaloq, yantoq, sho'ra, shuvoq, qo'ng'irbosh, qo'ziquloq, tuyatovon, quyonsuyak. juzg'un, qovul, oqquray, qiltiq, karrak, rang, iloq, betaga, qiyoy, qamish, yulg'un, oqbosh, qushqo'nmas, na'matak, mingboshi, chitir, g'umay, pechak, saksovul, har xil butalar, jiyda, do'lana, tol, terak, qayrag'och, oq akatsiya, zarang, shumtol va boshqalar o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan: jayra, tulki, bo'ri, chiyabo'ri, qobon, jayron, nutriya, ondatra, ko'rsichqon, suvkalamush, tipratikan, yumronqoziq, kaltakesak, ilon, toshbaqa, falanga, chayon, qoraqurt, qushlardan xo'jasavdogar, moyqut, bulduruq va boshqalar bor.

Guliston tumani viloyatning sharqiy qismida joylashgan. 1952 yil 16 aprelda tashkil etilgan. Maydoni 0,35 ming km². Aholisi 54 ming kishi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, rus, koreys, tatar va b. millat vakillari ham

yashaydi. 1 km² ga 154,3 kishi to'g'ri keladi (2005). Tumanda 1 shaharcha (Dehqonobod), 9 qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi - Dehqonobod shaharchasi.

Hududi Mirzacho'l tekisligining sharqida joylashgan. Yer yuzasi tekislik (o'rtacha bal. 250 m). Iqlimi kontinental iqlimdir. Tuman xududidan «Do'stlik» kanalining o'ng tarmoq va chap tarmoq ariqlari o'tadi. Oqova sho'r suvlarni chiqarib yuborish uchun kanal, ariq va zovurlar qazilgan. Sirdaryoning chap sohilida bahorgi toshqin suvlarining to'planishidan hosil bo'lgan Achchiqko'l bor.

Tumanda avtokorxona, «O'zqishloqtexnika» tuman birlashmasi, 3 paxta punkti, dehqon bozori, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari ishlab turibdi.

Xo'jaligining asosi dehqonchilik bo'lib, yetakchi tarmog'i— paxtachilikka ixtisoslashgan. Sug'oriladigan yerlarga paxta, g'alla, sabzavot va poliz, beda, makkajo'xori va boshqa ekinlar ekiladi. 10 dan ziyod dehqon-fermer xo'jaliklari uyushmasi, 130 dan ortiq dehqon-fermer xo'jaligi bor. Tuman jamoa va xususiy xo'jaliklarida qoramol, qo'y va echki, parranda, yilqi boqiladi.

30 ga yaqin umumiy ta'lim maktabi, «Umidli yoshlar» litseyi, Dehqonobod qishloq xo'jalik litseyi, maktab internati faoliyat ko'rsatadi. 23 jamoat va bolalar kutubxonasi, klub muassasalari, madaniyat uylari, madaniyat saroyi bor. Stadion, futbol, tennis maydonlari, sport zallar va boshqa sport inshootlari mavjud. Kasalxona va dispanser, 10 ambulatoriya, 5 qishloq vrachlik punkti, «Onalar va bolalar» viloyat fizioterapiya shifoxonasi aholiga xizmat ko'rsatadi. 1930 yildan «Guliston hayoti» tuman gazetasi chiqariladi.

Mirzaobod tumani viloyatning janubiy qismida joylashgan. 1988 yil 2 sentabrda Komsomol tumani nomi bilan tashkil qilingan, 1992 yil 22

oktabrdan Mirzaobod deb nomlangan. Maydoni 0,64 ming km². Aholisi 54,9 ming kishi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, rus, tatar, tojik, qozoq va boshqa millat vakillari ham yashaydi. 1 km² ga 85,8 kishi to'g'ri keladi (2005). Tumanda 7 qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi - Navro'z qishlog'i.

Tuman hududi Mirzacho'l tekisligida joylashgan. Yer yuzasi tekislik (o'rtacha bal. 250 m). Iqlimi kontinental.

Tumanda 3 sanoat, 2 qurilish korxonasi, kichik va xususiy korxonalar, mikrofirmalar, dehqon bozori bor.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i-paxtachilik. Paxtadan tashqari g'alla, sabzavot, poliz, meva, uzum, kartoshka yetishtiriladi. Dehqon-fermer xo'jaliklari, xususiy fermalar mavjud.

Umumiy ta'lim maktablari, kasb-hunar, iqtidorli bolalar litseylari faoliyat ko'rsatadi. 3 kasalxona, tuman markaziy poliklinikasi, 5 qishloq vrachlik punkti aholiga xizmat ko'rsatadi. 1985 yildan «Mirzaobod» tuman gazetasi chiqariladi.

Oqoltin tumani viloyatning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan. 1971 yil 29 avgustda tashkil etilgan. Maydoni 0,57 ming km². Aholisi 50 ming kishi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, qozoq, tojik, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² da 87,7 kishi (2005). Tumanda 6 qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi — Sardoba qishlog'i.

Relyefi, asosan, tekislik bo'lib, Mirzacho'l dashtidan iborat. Iqlimi keskin kontinental. Yarlari Janubiy Mirzacho'l va Markaziy tarmoq kanallaridan sug'oriladi.

Tumanda paxta tozalash zavodi, avtokorxona, qurilish tashkilotlari, kichik va xususiy korxonalar, mikrofirmalar, dehqon bozori faoliyat ko'rsatadi.

Sayxunobod tumani viloyatning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. 1952 yilda tashkil etilgan, 1984 yildan Sayxunobod tumani nomi bilan yuritiladi. Maydoni 0,55 ming km². Aholisi 61,8 ming kishi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, qozoq, rus, tatar, koreys va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 112,4 kishi (2005). Tumanda 1 shaharcha (Sayxun), 7 qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi - Sayxun shaharchasi.

Relyefi pasttekislik. Mirzacho'lning sharqida joylashgan. Hududi sharqda Sirdaryoga tutash. «O'ng tarmoq» kanali oqib o'tadi. Iqlimi kontinental. Past joylarda ba'zan kichik ko'llar (SHo'rko'l, Qolgansir, Ko'rko'l) uchraydi.

Tumanda paxta tozalash zavodi, «Oqoltindon» korxonasi, MTP, avtokorxona faoliyat ko'rsatadi. 5 qo'shma, 15 kichik, 56 xususiy korxona, 24 aksiyadorlik jamiyati bor.

Dehqonchilik, asosan, paxtachilik— tuman xo'jaligining negizini tashkil qiladi. Shuningdek, g'allachilik, polizchilik, sabzavotchilik, chorvachilik bilan ham shug'ullaniladi. 800 ga yaqin fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatadi. Ekin maydonlariga paxta, don, sabzavot, poliz, yem-xashak ekinlari, kartoshka, beda ekiladi. Tuman jamoa va xususiy xo'jaliklarida qoramol, qo'y va echki, parranda, yilqi boqiladi.

Umumiy ta'lim, bolalar musiqa maktablari, gimnaziya, litsey, kasb-hunar kolleji mavjud. Tuman markaziy kutubxonasi va uning tarmoqlari, madaniyat uylari bor. Kasalxona, tug'ruqxona, bolalar va kattalar poliklinikalari va boshqa tibbiy muassasalar aholiga xizmat ko'rsatadi. Tuman xududidan Katta O'zbekiston trakti o'tgan. 1971 y.dan «Sayxun» tuman gazetasi chiqariladi.

Sirdaryo tumani viloyatning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. 1939 yil 10 fevralda tashkil etilgan. Maydoni 0,55 ming km². Aholisi 104, 5

ming kishi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, tatar, qozoq, rus, koreys va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 190 kishi (2005). Tumanda 2 shahar (Vaxt, Sirdaryo), 9 kishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi — Sirdaryo shahri.

Yer yuzasi past-baland tekisliklardan iborat (o'rtacha bal. 240 m). Iqlimi keskin kontinental. Tuman hududining shimoliy, shimoliy.-sharqiy tomonidan Sirdaryo o'tadi.

160 kichik va xususiy, 3 qo'shma korxona faoliyat ko'rsatadi. Sanoat korxonalaridan Toshkent mashinsozlik zavodining filiali, kurilish tashkilotlari, 5 avtokorxona, maktab va sport jihozlari, sut, guruch, 2 paxta tozalash va non zavodlari, Yangiyo'l poyabzal fabrikasining filiali, qandolatchilik kvas va limonad ishlab chiqarish korxonalari, Sirdaryo shahar bozori bor.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i — paxtachilik. 790 dan ziyod fermer xo'jaligi ishlab turibdi. Sug'oriladigan yerlariga paxta, don, beda, sabzavot va poliz, yem-xashak ekinlari ekiladi. Mevazor va tokzorlar barpo etilgan. Tuman jamoa va xususiy xo'jaliklarida qoramol, qo'y va echki, parranda, yilqi boqiladi.

44 umumiy ta'lim maktabi, Sirdaryo pedagogika kasb-hunar kolleji, musika, sport maktablari mavjud. 32 kutubxona, 16 klub va madaniyat uyi ishlab turibdi. Markaziy stadion, bir qancha sport maydonlari va sport inshootlari bor. Tuman markaziy kasalxonasi, tug'ruqxona, shoshilinch tez tibbiy yordam bo'limi, feldsher-akusherlik punktlari, qishloq vrachlik ambulatoriyalari, dorixona va boshqa tibbiy muassasalar aholiga xizmat ko'rsatadi. Tuman hududidan Katta O'zbekiston trakti o'tgan. Toshkent—Samarqand yo'nalishida qatnaydigan elektr poyezdi, Guliston-Toshkent elektr poyezdi, Sirdaryo stansiyasi orqali Toshkent-Andijon-Namangan, Toshkent—Jizzax, Moskva—Dushanba poyezdlari o'tadi. 1963 yildan «Sirdaryo» tuman gazetasi chiqariladi.

1.2. Sirdaryo viloyati tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi

Turkiston tog‘ tizmalarining shimolidagi xududlar geografik o‘rni, tabiati, iqlimiga ko‘ra inson yashashi uchun qulay yerlardan biri bo‘lib qadimdan bu joylarda odamlar istiqomat qilib kelishgan.

Qadimshunoslik ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalarining bu xududida odamlar qadimgi tosh davridan istiqomat qilishgan, bronza va ilk temir davriga oid mozor qo‘rg‘onlar Xo‘jand, O‘ratepa, Nov va Zomin xududlarida ham uchraydi¹.

Dastlab voha So‘g‘d davlati tarkibiga kirgan.² Voha qadimda dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi so‘g‘dlar va baqtriyaliklar hamda chorvador sak-skif qabilalari chegarasida joylashgan bo‘lib, mahalliy aholining o‘ziga xos dehqonchilik va chorvachilik madaniyatining qorishiq turi shakllangan.

Ustrushona atamasi yozma manbalarda ilk o‘rta asrlardan boshlab qo‘llanila boshlaydi³. O‘rta Osiyoning ushbu muhim tarixiy madaniy viloyati Turkiston tog‘-tizmalarining shimolidagi hududlarni –Xo‘janddan Jizzaxgacha va Xisor tog‘ tizmalarigacha bo‘lgan joylarni o‘z ichiga olgan. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida Ustrushonaning o‘tmish tarixini moddiy madaniyat asosida o‘rganib ommalashtirishda akad.Y.F.Buryakov, A.A.Gritsina, M.X.Pardayev T.O.Omonjulov, B.B.To‘ychibayev kabi qadimshunos va elshunos olim T.U.Salimovlarning hissalar salmoqlidir.

Arxeolog olimlarimizning ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, Ustrushonada ayrim bir shaharlar miloddan avvalgi VII va VI asrlardayoq

¹ T.Omonjulov, O.Nazarov «Sirdaryo havzasi qadimgi shaharlari tarixidan. // “O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: Tarix va hozirgi zamon” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.T., 2007 yil. 72-bet

² Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Т., «Фан» 1992. С.3

³ Mavlonov O‘. Qadimgi yo‘llarning urbanizatsiya va shaharsozlik madaniyati rivojida tutgan o‘rni. Qarang: “O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: tarix va hozirgi zamon” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari T., 2007 yil 51-bet.

mavjud bo'lgan bo'lib, bular Nurtepa va Qurqatlardir. A.A.Gritsina ta'rificha qadimiy Sovot, Kurqat, Xo'jand, Xovos, Nugtepa, Bunjikat, Nurtepa va Jizzax shaharlari miloddan oldingi asrlardayoq, hattoki Aleksandr zamonasigacha, Buyuk ipak yo'lida joylashgan bo'lib antik va ilk o'rta asrlarda ham o'z faoliyatini davom ettirgan. Ustrushona davlati poytaxti Bunjikat shahri bo'lgan. T.O.Omonjulov milodning 1ming yilliklariga qadar Shimoliy Osrushona sug'diy va shak (sak)lar tomonidan o'zlashtirilgan bo'lib arablar bosqiniga qadar to'xtovsiz taraqqiyotda bo'lgan degan xulosalar chiqaradi.¹ Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Shimoliy Ustrushona aholisi milodning boshlaridayoq (aniqrog'i III-IV asrlar) o'troq hayot kechirib dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ilk o'rta asrlarda asosiy suv xavzalari Zominsoy, Achisoy va Pshag'or soylar hisoblanib ko'tarma novlar yordamida ariqlar orqali adirliklarga suv olib chiqiladi. Chorvachilik, dexqonchilik va xunarmandchilik savdo-sotiq ishlari o'lkada rivojlangan, shaharsozlik madaniyati taraqqiy etib, aholisining e'tiqodiy qarashlarida otashparastlik muhim o'rin tutadi. O'lkaning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiysida Buyuk ipak yo'li karvon savdosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Yunon muarrixlari o'lka aholisini umumiy nom bilan «Yovvoyilar («varvari») deb atashgan. Kvint Kursiy Ruf o'lkadagi asosiy shaharlardan biri Kiropolni qattiq turib yunon-makedonlardan ximoyalagan «kuchli memakenlar qabilasi» haqida yozib qoldirgan. Tarixchi olim I.V.Pyankov fikricha markazi Kiropol bo'lgan butun voha aholisi «memakenlar» deb atalgan. Chamasi memakenlar viloyatning qadimgi aholisi tarkibiga kirgan qabilalardan birining nomi bo'lib keyinchalik bir-biriga yaqin bo'lgan qabilalarning umumiy nomi darajasiga yetgan, viloyatni eng qadimgi elatini

¹ T.Omonjulov. Qadimgi Osrushona –eramizdan avvalgi va eramizning I minginchi yilliklarida. Mirzacho'lni kompleks o'zlashtirishning 35- yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy anjumanning hujjatlari. 5-dekabr 1991 yil. Guliston, 1992. 42-bet

tashkil etganlar. Mazkur xulosalar Ustrushona davlati davrida mahalliy va davlat boshqaruvi memakenlar qoʻlida boʻlganligidan dalolat beradi. Qadimshunos olimlar Nurtepa shahar madaniyatini memakenlarga xos madaniyat sifatida eʼtirof etadilar.

Eramizdan avvalgi II-I asrlarda vohaga Qangʻ davlatining shakllanishi jarayonida sharqdan qangʻlar gʻarbiy oʻlkalardan sarmatlar, Shimoliy Tyanʻ-Shan va Oloy xududidan usunlar kirib keldi. Shu tariqi Sirdaryoning oʻrta sohillarida sharqiy, janubiy va gʻarbiy tomonlardan koʻchib kelgan qabilalar aralashuvi asosan xunlar davrida kuchaygan. Miloddan avvalgi II va milodiy I asrlarda Sirdaryoning oʻrta qismi va uning shimolidagi viloyatlarda bu yerlarga kelib oʻrnashgan va sugʻdiy tili aholining turkiylashgani hisobiga turkiyzabon xalqlar koʻpchilikni tashkil etgan.

K.Shoniyozovning yozishicha, turklarning bir qismi Oltoydan Gʻarbga koʻchishi jarayonida Dashti Qipchoq orqali Sirdaryoning quyi va oʻrta havzalariga yoyilgan qipchoqlardan iborat boʻlgan va ular oʻgʻizlar bilan ixtilofiy xolatda boʻlganlar. Qipchoqlarning bir guruhi «Xudud al-olam»da «andar az-qipchoq» deb atalgan. «Andar az-qipchoq»lar Sirdaryo boʻylarida yashovchi oʻgʻiz qabilalariga vaqti-vaqti bilan hujum qilib turganlar. Qipchoqlar hujumiga bardosh bera olmagan oʻgʻizlarning salmoqli qismi Sirdaryo boʻylarini tashlab gʻarbga koʻchib ketishga majbur boʻldilar.¹ XI asr boshlarida qipchoqlar Sirdaryo oʻrta qismini toʻliq egallab «Sirdaryo boʻyi qipchoqlari» degan etnik uyushmani tashkil etgan, ularning tarkibiga bijanak (pecheneg), argʻu, tuxsi va oʻgʻiz etnik elementlari ham kirgan. Bular XI asrning birinchi yarmidan boshlab Oʻrta Osiyoning Markaziy xudularidagi etnik uyushmalarga va siyosiy tuzilmalarga oʻz taʼsirini oʻtqazib ijtimoiy hayotda muhim oʻrin tutadilar.

Aynan shu davrda Xorazmni yirik va mustahkam davlat darajasiga koʻtarishga intilgan xorazmshoxlar Sirdaryo boʻylaridagi qipchoqlar bilan

ixtilofda bo'ldilar. Qipchoqlarning ayrim bo'laklari Xorazmshohlarga tobe bo'lsalarda, asosiy qismi Ayir-Tukixon boshchiligida kurashni davom ettiravergan. Xorazmshoh Muhammad 1200-1220 yillarda qipchoqlarga qarshi bir necha marotaba xarbiy yurishlar uyushtiradi, faqatgina 1215 yilda qipchoqlarga qattiq talofat yetkazadi va ular Sirdaryoning shimolidagi bepayon cho'lliklarga chekinishadi.

Bugungi kunda xalqimiz tarixiga doir tadqiqotlarda «o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi so'nggi bronza davriga oid», deb e'tirof etiladi. Akademik K.Shoniyozov «O'zbek elati IX-X asrlarda shakllandi», deb xisoblaydi. Akademik A.Asqarov esa «o'zbeklarning etnogenezi XI asrgacha davom etadi... XI-XII asrlarda o'zbek xalqi uzil kesil shakllandi»¹, deb hisoblaydi.

Yuqorida keltirilgan tarixiy dalolatlar qadimiy Ustrushona xududida o'zbek tilida so'zlashuvchi qorluq-chigil, qipchoq va o'g'iz laxzalariga xos urug'-qabilalarining qadimdan yashaganligini ko'rsatadi. Zomin tumani aholisining shakllanish tarixini tahlil etar ekan elshunos olim Tursunboy Salimov mazkur xududga qadimdan o'rnashgan qabilalar tarzida o'zbek turklari va qorluqlarni e'tirof etadi². Xuddi shu o'rinda qayd etmoq lozimki, Tojikiston Respublikasi Istaravshan, Shahriston tumanlarida yashovchi o'zbek turklari ham qadimdan shu xududda istiqomat qilishgan. O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistonning tog'li tumanlarida istiqomat qiluvchi o'zbek turklari qadimdan bu hududlarda o'rnashib, sharqiy-eron tillarida so'zlashuvchi so'g'dlar bilan qorishib, o'z tillarini berganlar va o'zbek xalqining asoslarini yaratgan qavmlardan biridir.

Nurota tog' etaklarida unga tutash cho'llarda yashagan o'g'iz-saljuqlari asrlar davomida mahalliy etnoslar bilan yonma-yon yashaganlar, o'z navbatida, o'zbek etnik guruhlariga tarkibiga kirib ketgan. Shuning uchun

¹ A.Asqarov O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T., «Universitet», 2007. 10-bet.

² Древний Заамин.Т., «Фан», 1994 й. 76-78 с.

ham bo'lsa kerak keyingi avlodlari o'zlarini o'zbek turkmanlari yoki "Nurota turkmanlari" deb ataganlar, deydi akademik K.Shoniyozov¹. Zomin, O'ratepa tumanlarida Sirdaryo sohilida mavjud turkman qishloqlarida o'zbek turkmanlari istiqomat qilishayotgani o'g'iz etnik gurhi o'tmishidan nishonadir.

Turkiston tog' tizmalarida old qismida Xo'janddan Zominga qadar bo'lgan qishloqlar tarkibida Qipchoq, Xoldorqipchoq kabi etnonimlarning mavjudligi qipchoq etnik guruhlarining o'timishidan dalolat beradi.

O'zbek turklarida "turk-u tojik bir xalq" degan naql mavjud. Garchand Zomin tumanida tojik millatiga mansub aholi kamchilikni tashkil etsada, O'ra-tepa, Shahriston atrofidagi qishloqlarda o'zbek va tojik xalqlari birin ketin joylashgan qishloqlarda istiqomat qilishadi. Mazkur hududda istiqomat qiluvchi o'zbek va tojiklar ikki tilli etnoslar bo'lib, o'zaro suhbatlarda bir-birlarini bimalol tushuna oladilar, bozoru to'y- tantanalarida moddiy-ma'naviy madaniyatlarning deyarli barcha jabhalarida uyg'unliklar ko'p bo'lib, hattoki ko'p holatlarda quda-andachilikda ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur nuqtai nazardan tadqiqotlar davom etadi.

Qadimdan Mirzacho'l deb ulkan tog'lar orasida joylashgan tekislikni aytishgan bo'lib, bu tekislik Sirdaryo daryosining chap qirg'og'ida, uning o'rta oqimida, janubda Turkiston tog' tizmasi va g'arbda Biliqliqtov tog' tizmasi hamda Qizilqum sahrosi oralig'ida joylashgan. Mirzacho'l Toshkentdan 70 km masofadan boshlanadi. Bu hudud rejada uchburchak shaklida ko'rinib, uning cho'qqisi Chordara hududida, asosi esa Turkiston tog' tizmasiga tutashdir. Hududning eng janubiy qismi Turkiston tog' tizmasiga tutash tog'oldi tekislik bo'lib, hozirgi Janubiy Mirzacho'l kanalidan yuqoriroqda joylashgan va odatda Jizzax cho'li deb ataladi.

¹ K.Shoniyozov O'zbek xalqlarining shakllanish jarayoni. T., «Sharq», 2001 y. 398 bet.

Ko'rsatilgan chegaralardagi yerlarning umumiy maydoni 1,1 million gektarga teng bo'lib, shundan Mirzacho'lning o'zi 850 ming gektarni egallagan edi.

XIX asr o'rtalariga kelib, Mirzacho'l less-suglinka tuproq bilan qoplangan jazirama sahroni eslatardi. Uning yuzasining ayrim qismlari sho'rlangan bo'lib, oppoq tuzi quyoshda yarqirab turardi, suv kamdan-kam uchrab, hayot deyarli yo'q edi. Faqat karvon savdo yo'llarining goh u yeri, goh bu yerida quduqlar va sardobalar mavjud bo'lgan.

Bahorda cho'l jonlanib, uning yuzasi yam-yashil o'simliklar va qip-qizil qizg'aldoqlar bilan qoplangan.

Chor Rossiyasi istilosi davrida Mirzacho'l kimsasiz sahroni eslatardi. Shu boisdan ham dastlab Qirg'iz cho'li deb atalib kelgan cho'lni ruslar "Golodnaya step", ya'ni "Ochofat cho'l" deb atay boshladilar. Rus olimlaridan cho'lni birinchilar qatori tadqiq etgan o'lkashunos olim Semyonov-Tyanshanskiy "Turkiston o'lkasi" nomli kitobida Mirzacho'l haqida quyidagilarni yozgan edi: "Yoz paytida Ochofat cho'l quyoshda kuydirilgan sap-sariq tekislikdan iborat bo'ladi, jazirama issiq va yuzada hayot asoratlarining butunlay yo'qligi cho'lning nomi topib qo'yilganligidan dalolat beradi. May oyidayoq o't-o'lanlar sarg'aya boshlaydi, ranglar xiralashadi, qushlar uchib ketadi, xatto toshbaqalar inlariga kirib ketadi va cho'l yana quyoshda qovurilgan, jonsiz kenglik qiyofasiga kiradi..." Bu haqda V.F.Karavayev ham 1914 yilda yozgan edi.

Sirdaryoga tutash bo'lgan Mirzacho'lning shimoliy va shimoli-sharqiy qismlari tarixiy sharoitlarga binoan eski sug'orish zonasi deb atalgan. Bu hudud Chirchiq, Oxangaron va Sirdaryo daryolarining qadimgi qumloq va toshloq allyuvial qatlamlarida joylashgan bo'lib, usti lyoss-suglinka va supeslar bilan qoplangan (quvvati 1 dan 40 m.gacha). Bu hududda yer yuzasiga kichik qiyaliklar xosdir.

Mirzacho‘lning janubiy qismi prolyuvial qiya tekislik bo‘li, ushbu landshaft uchun xarakterli yer yuzasi kiyalikka ega va mayda tosh qatlamlari hamda loyqa porodalar qatlamlaridan iborat. Shimolga tomon qiyaliklar asta-sekin tekislanib boradi, siniq porodalar qatlami tuproqqa cho‘kib, singib boradi va undan keyin esa qum, suglinka va loyga o‘tadi.

Tarix taqozosi bilan shunday holga kelib qolgan cho‘lga e‘tibor chor Rossiyasi ma’murlarini qiziqtirib qoldi. Bu qiziqish Turkiston ahlining tub manfaatlariga xizmat qilish uchun emasdi, albatta. Rossiyada kapitalizmning rivojlana boshlagani, to‘qimachilik sanoati uchun o‘z xususiy paxta manbaiga ega bo‘lishni taqozo etardi. O‘sha paytlarda to‘qimachilik korxonalarida ishlatilayotgan paxta xomashyosining 80 foizi Amerikadan keltirilar, amerikaliklar yil sayin paxta narxini oshirar, yetkazib berish shart-sharoitlarini og‘irlashtirardi. Shu boisdan xususiy paxtachilik bazasini yaratish Rossiya uchun birlamchi ahamiyatga molik vazifa bo‘lib qolgandi.

Mirzacho‘lga birin-ketin harbiy suratchilar, loyihachilar, muhandis-texnik mutaxassislar guruhleri jo‘natila boshladi. Harbiy topograf G.A.Aminov boshchiligidagi birinchi guruh 1869 yilning 22 sentabrida ish boshladi. Shundan so‘ng injener-texnolog N.F.Ulyanov 44 ming gektar yerni sug‘orishga mo‘ljallangan loyiha tuzdi.

1873 yilda maxsus komissiya loyihani ma’qulladi. Shu yil bahorda Nurota uyezdidan 23 ming, Xo‘jand uyezdidan 20 ming ishchi 10 kunga, Toshkent uyezdidan 10 ming ishchi ikki haftaga ariq qazishga jalb etildi. Ko‘rinib turibdiki, juda katta hajmda, jami 570 ming ishchi kuni miqdoridagi kuchlar jalb etish mo‘ljallangan. Kanal qurilishga g‘azna mablag‘ ajratishni paysalga solaverganidan qurilish xiyla cho‘zildi. To‘rt yil mobaynida (1874-1878 yillar) kanal qazish ishlarida o‘rta hisobda 7 mingdan kishi qatnashdi. Nihoyat, Turkistonning birinchi general-

gubernatori K.P.Kaufman nomi bilan atalgan bu kanal qurilishining birinchi navbati yakunlandi. Biroq jami 13,5 qilometr masofagacha cho‘zilgan ushbu qurilish 1881 yildan e’tiboran butunlay to‘xtatildi.

Oradan o‘n besh yilcha vaqt o‘tgach, anig‘i 1895 yilda Kaufman kanalidagi ishlarni yakunlash uchun konsessiya (ruxsatnoma) so‘rab amerikalik muhandis Fitsyug va moskvalik tadbirkor N.I.Reshetnikovlar rasmiy Peterburgga murojaat etishdi.Ularga izn berilmadi.

1876 yilda Toshkentga surgun qilingan buyuk knyaz N.K.Romanov ulkan daromad manbai bo‘lgan sug‘orish inshootlari qurilishi bilan shug‘ullana boshladi. 1884 yilda Turkistonning o‘sha paytdagi general-gubernatori M.G.Chernyayev unga Kaufman kanali qurilishini yakunlash taklifi bilan murojaat qildi. Biroq Mirzacho‘lga doir barcha tadqiqotlarni diqqat bilan o‘rganib borayotgan knyaz "bu ish juda qimmatga, bir necha million rublga tushajagini bilgani uchun" taklifni rad etdi va o‘z mablag‘i hisobidan yirik sug‘orish tarmog‘i qurish (keyinchalik o‘zlashtirilgan yerlarni davlatga topshirish sharti bilan) uchun ro‘xsat so‘rab amakivachchasi hisoblanmish imperator Nikolay II-ga murojaat qiladi va oliy darajadagi ro‘xsatnomani olgach, ishga kirishadi.

Buyuk knyaz tarixiy Buxorariqni tiklashga urinib ko‘rdi. O‘tmishda yuzlab chaqirim masofaga suv eltgan bu ko‘hna suv inshootiga juda katta umid bog‘lagan edi. 1885-1890 yillarda cho‘lning ichkarisiga qarab 25 kilometrga cho‘zilgan ariq barpo etildi.

1890 yilning 24 sentabrida Mirzacho‘lga chor Rossiyasining moliya vaziri Vishnegradskiy tashrif buyurib, knyazning Buxorariq bo‘yicha ishlarini ko‘zdan kechirdi va uning shaxsiy harajatlariga qo‘shimcha davlat g‘aznasidan 100 ming rubl ajratishni lozim topdi. Bu mablag‘ ishlarning qisman bo‘lsada, tezlashib ketishida muhim omil bo‘ldi.

Sirtidan o'ta xalqparvar ko'ringani bilan botinan o'ta rusparast bo'lgan buyuk knyaz o'zining Mirzacho'lga suv chiqarish borasidagi faoliyati chorizmning Turkiston hududidagi kolonizatsiya siyosatiga xizmat qilajagini yashirmasdi ham. Turkistonning o'zida ishchi kuchlari oshib-toshib yotganini, ularga qilinadigan harajat ham juda kam bo'lishini ko'ra-bila turib, u Rossiyaning turli go'shalaridan xizmatini tugatgan soldat va kazaklarni, tirikchiligi yurishmagan rus dehqonlarini bu ishga jalb qila boshladi. Natijada cho'l bag'rida birin-ketin rus qo'rg'onlari paydo bo'ldi. Buxorariq qurilishi boshlangan joyda ruslarning birinchi aholi punkti - Zaporozhye shaharchasi shu tariqa vujudga keldi. Keyinchalik, 1886 yilda Nadejda, 1887 yilda Romanov, 1891 yilda Nikolskoye qo'rg'onlari tashkil etildi. 1896-1897 yillarda cho'lning shimoliy qismida, Sirdaryo sohiliga yaqin joylarda, eski pochta yo'li yoqalarida yana to'rtta aholi punkti - Obetovanniy, Verxnevolinsk, Nijnevolinsk va Konnogvardeysk qo'rg'onlari barpo qilindi. Ushbu qo'rg'onlarga ko'chirma qilingan ruslar dastlab kanal qazishda, keyinchalik qimmatbaho xomashyo hisoblanmish paxta etishtirishda asosiy ishchi kuchi bo'lib xizmat qilishlari, asta-sekin Mirzacho'lning chinakam egasi, tub aholisi bo'lib qolishlari lozim edi.

Turkiston o'lkasida rus qishloqlarining paydo bo'lishi oldindan rejalashtirilgan reja asosida olim borilmasdan, balki "hech qanday tartibsiz, faqat aynan o'sha daqiqada vujudga kelgan ehtiyoj talab qiladigan choratadbirlar asosida" olib borildi. Turkiston o'lkasi ma'muriyati voqealar orqasidan harakat qilib, bu holat qo'chiruvchilik ishida boshboshdoqlikni vujudga keltirardi. O'lkaga kelib, krestyanlar shu zaxotiyiq yangi joylarda birmuncha qulay joylasha olmasdilar; bunday joylashtirish haqida hatto hech qanday ko'rsatmalar ham bo'lmagandi, shuning uchun ayrimlari o'z vatanlariga qaytishga, boshqalar esa bir joydan boshqa joyga o'tishga majbur edilar. Bu Turkiston o'lkasidagi alohida yuqori lavozimdagi

mansabdorlarni xavotirga solmay qolmasdi. Ular o'zlarining xavfsirashlari haqida harbiy gubernatorlarga krestyanlarning bir joydan boshqa joyga harakat qilishlari yoki qayta ko'chirilishi o'lkada ruslarni mustahkam o'rnashib qolishiga imkon bermayotganini yozardilar. 1880 yilda Avliyo-Ota uyezdlari boshlig'i Sirdaryo viloyati harbiy gubernatorning ruhsatisiz o'zboshimcha ravishda krestyanlarga harakat qilish erkinligini taqiqlab qo'ydi va hatto ularga qayta vatanlariga qaytib ketishlariga ruhsat bermadi. Biroq harbiy gubernator bunday choralarga javoban yezd boshlig'iga u vatanlariga qaytishni xohlayotgan ko'chib kelganlarni ushlab turish mumkin emas deb hisoblashini yozdi.

Turkiston o'lkasidagi alohida mansabdorlarning krestyanlarni O'rta Osiyoga ko'chib ketishini man qilishga urinishlari muvaffaqiyatsiz bo'ldi.

XIX asr 70-yillar oxirigacha ko'chib kelganlarni joylashtirish to'g'risida o'lka ma'muriyatining hech qanday ko'rsatmalari yoki farmoyishlari chiqarilmadi, bu esa ko'chirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1881 yil 3 martda general-gubernator ishloqlarga iste'fodagi quyi mansablarni qabul qilish haqida farmoyish chiqardi. Hujjatda ularga meros mulk sifatida foydalanish huquqi bilan har biriga 7 desyatinadan yer berilishi ko'rsatib o'tilgan edi. shuningdek, ushbu yerlarni ijaraga berish man qilingani hamda ular begonalashtirilmasligi ta'kidlangan edi. Uchastka (yer maydoni) olganlarning barchasi yerga birinchi yildan boshlaboq ishlov berish majburiyatini olgandilar.

Ushbu ko'rsatma o'lka ma'muriyatining ruslarni joylashtirish bo'yicha dastlabki farmoyishi edi. U hali harbiy xarakterga ega bo'lib, iste'fodagi va zahiradagi quyi mansablarni joylashtirishni belgilab bergan edi. Boshqa qonunchilik hujjati esa 1883 yildagi qoidalar bo'lib, ular yangi turkistonlik general-gubernator Chernyayev tomonidan chiqarilgan (chop etilgan) edi.

Yangi hujjat asl ruslashtirish xarakteriga ega edi: O'rta Osiyoga faqat kelib chiqishi ruslardan bo'lgan shaxslarni ko'chirishga ruhsat berilgandi.

O'sha davrda yer olish tartibi to'g'risida K.K.Palen quyidagilarni hikoya qiladi: "Uchastkalar ko'chib kelganlarga merosiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan, biroq, ular ajratilgan vaqtdan 10 yil o'tganidan so'nggina, agar bu muddat davomida u o'z uchastkasiga yildan yilga uzluksiz ishlov bersa, yer uchastkalari ko'chib kelganning to'liq mulki bo'lishi mumkin edi. Bundan keyin ko'chib kelgan o'z uchastkasini kelib chiqishi rus bo'lgan boshqa shaxsga berishi mumkin edi. Ko'shchib kelgan vafot qilgan holda, yer uning vorislariga xuddi o'sha cheklovlar bilan o'tardi. Mazkur qoidalarini chiqarib, Chernyayev ko'chib kelganlarni o'lkaga mustahkam o'rnashtirib olishni hamda O'rta osiyoda rus ta'sirini mustahkamlash maqsadini ko'zlagan edi. Ushbu qoidalar ko'p bilan 1 yilgacha amal qila oldi, xolos. Ularning uzoqqa cho'zilmaganini shu bilan tushuntirish mumkinki, mahalliy ma'muriyat deyarli umuman yangi qishloqlar ustidan g'amxo'rlik qilmasdi. Eng ehtiyojmand oilalarga har doim va o'z vaqtida ssuda berilmasdi, bu esa ularga qoidaning ikkinchi talabini bajarishga imkon bermasdi. Ayrimlar esa nafaqat 10 yil davomida, balki hatto 2 yil ham dehqonchilik bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmasdi. Yangi ko'chib kelganlarning ko'pchiligi o'z yerlarini tashlab, yangi yerlarga ko'chib ketardi.

O'sha 1883 yildayoq rus posyolkalarini tuzish uchun maxsus komissiya tuzilib, unga "krestyanlarni Sir-Daryo viloyatiga joylashtirish qoidalarini ishlab chiqishda ko'maklashish vazifasi yuklatildi. Ammo komissiya hatti-harakatlari ko'chiruvchilik masalasini tartibga solishga yordam bermadi va 1885 yil yilda u tarqatildi.

Bu davrda (1886 y.) "Turkiston o'lkasini boshqarish haqida Nizom" chiqqan edi – bu mohiyat jihatidan o'lkada krestyanlarni joylashtirish

qoidalarini qonunlashtirgan dastlabki qonuniy hujjat edi. Rus krestyanlariga faqat “erkin (bo‘sh) davlat yerlariga” ko‘chib ketishga ruhsat berilgan edi. Ruhsat birinchi navbatda Turkiston harbiy okrugining quyi zahiradagi mansablariga berilardi. Ularga shuningdek, quyidagi imtiyozlar berilgandi: “erkin (bo‘sh) davlat yerlaridan har bir ishchiga (rabotnik) 10 desyatinadan oshmagan maydonni ajratish; 2) 10 yil davomida davlat yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilish hamda har bir kishiga 100 rubldan oshmagan miqdorda nafaqa berish. Biroq ushbu qonun Rossiyada burjuaziya va pomeshchiklar o‘rtasida keskin iqtisodiy ziddiyatlar hukmronlik qilayotgan davrda e‘lon qilindiki, bu mustamlakalarda yer masalasini hal qilishga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Hukmron sinflardan har qaysisi uni chekka joylarda o‘z foydasiga hal qilishga urinardi. “Nizom”ning o‘zi ham ziddiyatli xarakterga ega edi. U mahalliy aholi uchun yer masalasini hal qilishi lozim edi hamda rus ko‘chib kelganlarga beriladigan yer maydonlarini aniq belgilab berishi kerak edi. bizga ma‘lum bo‘lishicha, O‘rta Osiyo xonliklarida ularning Rossiyaga qo‘shib olinishidan oldin yer mezonlarini aniqlash jihatidan yagona fikr hanuz yo‘q. Tarixchilarning bir guruhi hisoblashicha, xonliklarda yerlarning uchta mezoni (kategoriya) ma‘lum bo‘lgan: amlok (davlat), mulk (xususiy yer egaligi bo‘lib, davlat solig‘i solinmaydigan yerlar) va vaqf. Boshqalarining ta‘kidlashicha, yerlarning to‘rtta mezoni ma‘lum edi, amlok, mulk, xiroj (xususiy yer egaligi bo‘lib, hosilning o‘ndan bir qismi miqdorida davlat solig‘i solingan yerlar) va vaqf.

O‘lkani Rossiyaga qo‘shib olinishidan keyin chorizxm iqtisodiy qudratni bosish va feodallarning ijtimoiy mavqeini pasaytirish uchun yerlarning barcha mezonlarini (amluk, xiroj, mulk) davlat yerlari deb e‘lon qildi hamda ularni bevosita ishlov berayotganlarga meros (vorisiy) mulk sifatida taqsimlab bergan. Ko‘chmanchilarning yerlari ham davlat yerlari

deb e'lon qilingan edi va ko'chmanchilarga muddatsiz foydalanish uchun qoldirildi. Shu tariqa, "Nizom" (Qoidalar) da mustamlakachi fondlar to'g'riida lom-mim deyilmagan edi. Faqat "mavot" (o'lik) yerlar bo'sh (erkin) qolgan edi va ular mustamlakachi fond bo'lishi mumkin edi. Ammo ularni ko'tarish uchun katta pul harajatlari talab qilinardi chunki sug'orish ishlarini o'tkazish kerak edi.

Sir-Daryo statistik qo'mitasi kotibi vazifasini bajaruvchi I.I.Geyyer o'zining 1891 yil 20 mayda Sir-Daryo viloyati harbiy gubernatori nomiga yozgan ma'ruzasida ma'lumot berishicha: "Ko'chib kelishga rag'bat bo'lib barcha hollarda krestyanlarni o'rab turgan sharoitlardan noroziligi, ko'p hollarda bu sharoitlar ko'pincha iqtisodiy xarakterda bo'lgan".

Ko'chib kelganlarning ko'payib ketishi o'lka ma'muriyatini qiyin ahvolga soldi, chunki u ko'plab odamlarni kutib olishga tayyor emasdi. 1893 yilda Sir-Daryo harbiy gubernatorining hisobotida joylashtirilmagan ko'chib kelganlar o'tgan yilda ilgari tuzilgan qishloqlarga joylashtirilgan va shu tariqa 1893 yilda viloyatda yangi posyolkalar paydo bo'lmagan, deb ta'kidlagan edi. Agar O'rta Osiyoning Sir-Daryo viloyati kabi asosiy mustamlakachilik viloyatida ko'chiruvchilik harakatining eng yuqori rivojlangan paytida yangi qishloqlar tashkil topmagan bo'lsa, demak ma'muriyat o'z vakolatida erkin yerlarga ega bo'lmay, qarshilik ko'rsatmaslik yo'lidan borganligini aytish mumkin. Bu hol doimiy yashayotgan aholini yangi ko'chib kelganlar tomonidan siqib chiqarlishiga olib keldi, bu esa, o'z navbatida, birinchilarning xo'jalik turmushiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Barcha ko'chib kelganlarni birdaniga joylashtirishga imkoni yetmagan ma'muriyat ularni taqdir taqozosiga tashlab qo'ydi. Yangi kelganlar o'zboshimchalik bilan uchastkalarni egallab olishga majbur bo'lishdi. Ayrim hollarda bunday o'zboshimchalik bilan joylashib olish mahalliy

aholi va rus krestyanlari o'rtasidagi kelishuv asosida amalga oshirilgan. Ayrim hollarda esa so'nggilari dehqonlar yerlarini kuch ishlatish yo'li orqali egallashgan. Bu hol ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yomonlashuviga olib keldi, va chorizm maqsadlariga to'g'ri kelardi, chunki chorizm ruslar va mahalliy aholi o'rtasida milliy ziddiyatlarni yondirib, shu yo'l orqali ularning diqqat-e'tiborini sharoitlarni yaxshilashtirish uchun kurashdan chalg'itardi hamda bunday hol chorizmga ham birinchilarni, ham ikkinchilarni cheksiz zulm ostida tutishga imkon berardi.

1893 yilda chor ma'muriyati hatto rus ko'chib kelganlarga miltiqlar berdi. Ichki ishlar vazirligi qoshidagi maxsus topshiriqlar mansabdori A.A.Polovsevning yozishicha: "Bu miltiqlar odatda ularda eng ko'rinarli joylarda osig'lik turardi. Ular nimaga xizmat qiladi degan savolga krestyanlar ular boshliqlar tomonidan "qirg'izlarni o'z joyiga solish" uchun berilgani, deb javob qaytarardi".

Qanday bo'lmasin, ko'pchilik ko'chib kelganlar o'z yeriga ega bo'lolmadi va ular yirik rus yer egalariga, masalan, buyuk knyazga yoki sanoat korxonalari egalariga xizmatkorlik qilishga majbur bo'lishdi.

Ma'muriyat yordamida joylashtirilgan krestyanlar ham o'zboshimchalardan yaxshiroq yashamadi. Yer uchastkalari ilgari shoshilinch ravishda taqsimlanardi, ularning xo'jalik uchun yaroqliligi hisobga olinmagan edi. Tez orada barcha yerlarni ham sug'orib bo'lmasligi aniqlandi. Suv tanqisligidan ekinlar payhon bo'la boshladi.

1890-yillar hosilsizligi nafaqat qishloq xo'jaligiga zarar yetkazdi, balki sanoatga ham salbiy ta'sil o'tkazdi. Tog' zavodlarida aholi, ayniqsa krestyanlarning sotib olish qobiliyatining pasayishi natijasida zavod buyumlarini ishlab chiqarish qisqara boshladi, bu esa ishchilar ahvolini og'irlashtirib yubordi. Ishsiz qolib, ular oziq-ovqat qidirib ketardilar. Ulardan ayrimlari Turkiston o'lkasiga kelib qolib, qishloq xo'jaligi bilan

shug‘ullana boshlaydi. Asta-sekin o‘troqlashib, ular rus posyolkalarini tashkil etishadi. Keyinchalik hammasi ham O‘rta Osiyoda o‘rnasha olmadi. “Chernyayevskiy qishlog‘iga birinchi bo‘lib Orenburg gubernasidagi tog‘ zavodlaridan ishchilar kelgan edi. Hosilsizlik tufayli zavodlardagi ishlab chiqarish qisqardi, oqibatda ishchilar boshqa tomonda tirikchilik izlashga majbur bo‘lishdi. Ammo kon ishchilari haqiqiy dehqon bo‘lmagan, yerga o‘rgnmagan edi; ularga bu yerda krestyanlik qilish yomadi, bundan tashqari bezgakli iqlimdan ham og‘ir ahvolga tushgan edilar. Shuning uchun o‘troqlashib qolgan tog‘ ishchilarining katta qismi yana ko‘tarilib, uchastkadan yana konlarga qaytib ketishadi; ularning o‘rnini esa Rossiya dashtli guberniyalaridan ko‘chib kelganlar egallashadi”.

1903 yil 10 iyundagi qonunda ko‘chib kelganlarga ayrim imtiyozlarni beradigan moddalar mavjud edi. Masalan, 8-moddada : “a) dastlabki 5 yil davomida ular vaqtinchalik obrok solig‘idan va pullik mahalliy hokimiyat idoralari yuklatgan (zemskiy) majburiyatlardan ozod qilinadilar; ushbu davr o‘tishi bilan ular vaqtinchalik obrok solig‘ini to‘laydilar, 5 yil davomida bu soliqning yarmini tashlaydilar, pullik mahalliy majburiyatlarini esa 3 yil davomida yarmini to‘lab keladilar, va b) o‘lkaga ko‘chirilgan paytda 15 yoshga to‘lgan shaxslar 6 yil davomida harbiy majburiyatlardan ozod qilinadilar”, deyilgan.

Ko‘chirish tartibi quyidagicha edi. Krestyan o‘z gubernatori orqali ichki ishlar vaziriga iltimosnoma yozardi. Joylardan faqat bunga ruhsat olingandan keyingina siljishi mumkin bo‘lgan. Shuning uchun krestyan taqdiri ko‘p hollarda vazir fikriga bog‘langan edi. Bundan tashqari, qonunda boshqa, ya’ni yaylov va o‘tloq yerlar chegaralari aniq belgilanmagan edi, bu esa ko‘chirish davomida yer tuzish ishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Yangi qonun chop etilganidan keyin ichki ishlar vaziri nomiga O'rta Osiyoga ko'chib ketish haqida juda ko'plab iltimosnomalar tushdi. Iltimosnomalar nafaqat ichki guberniyalarda yashovchilardan, balki sobiq Sibirdan ko'chib kelganlaridan ham bo'lgan. Sibirga ko'chib kelganlaridan keyin ular bu yerda o'z ishlarini tartibga sololmay, butunlay xonavayron bo'lgan edilar.

Inqilobiy to'fonlar paytida O'rta Osiyoga ko'chib keluvchilar oqimi yil сайn ko'payib borardi. Ayniqsa u Stolipin reaksiyasi yuqori nuqtaga kelgan davrda (1900-1910 yy.) juda kuchli bo'ldi. O'sha davrda hukumat krestyanlarni ko'chirib kelishga katta umid bag'ishlagan edi. Haqiqatda esa ko'chib kelganlar oqimining kuchayishi krestyan ommasi ahvolini faqat qiyinlashtirdi, xolos. O'zining ko'chiruvchilik siyosatida markaziy hukumat o'lka ma'muriyati tomonidan qarshilik ko'rsatilishiga uchradi. Ko'chirish boshqarmasi va o'lkadagi mahalliy ma'muriy organlar o'rtasida doimiy ravishda O'rta osiyoda krestyanlarni ko'chirish va joylashtirish masalasi yuzasidan kelishmovchiliklar sodir bo'lardi. Agar Ko'chirish boshqarmasi o'z hisobotlarida va ma'lumotnomalarida o'lkada ko'plab erkin yer maydonlari borligini tasdiqlashga harakat qilsa, ikkinchilar buning aksini ta'kidlab o'tardilar. Fikrlarning bunday qarama-qarshiligi ijtimoiy (sotsial) negizlarga ega edi: markaziy hokimiyatlar iloji boricha tezroq siyosiy jihatdan ishonchsiz bo'lgan krestyanlardan xalos bo'lishga intilsa, mahalliy ma'muriyat, tabiiyki, o'lkadagi xotirjamlikni buzishi mumkin bo'lgan odamlarni qabul qilishni xohlamasdi.

Mahalliy aholi yerlarini begonalashtirish (musodara qilish) 1916 yilgacha davom etdi. Xo'jand uyezdida u Mirzacho'lda sug'orish tarmog'ini o'tkazish bilan bog'liq edi. Masalan, Sir-Daryo ko'chirish rayonidagi yer ajratish-taqsimlash ishlari to'g'risidagi 1915 yilga oid hisobotda yozilishicha, Mirzacho'lda sug'orish va aholini joylashtirish

ehtiyojlari uchun 385 199 desyatina tortib olingan edi. Keyingi yilda Xo‘jand va Jizzax uyezdlaridagi ko‘chmanchi aholi yerlarini tortib olish evaziga yangi mustamlakachilik fondini tashkil qilish rejalashtirilgan edi. “Qayd qilinayotgan tortib olingan maydonning Xo‘jand uyezdida joylashgan bir qismi so‘nggi vaqtgacha Savat volostidagi qirg‘izlar (128 o‘tov egalari) ning umumiy foydalanishida bo‘lgan. Ular yilning katta qismida O‘rta Osiyo temir yo‘lidagi Chernyayevo stansiyasi yonida istiqomat qilishadi. Ular 4 bo‘g‘inga bo‘linadilar: Parchayuz, Qo‘qon-qarapchi, Nayman va Turkman hamda bitta Qarapchi-parchayuz jamoasini, nomi zikr etilgan volostdagi 3 ta ma‘muriy ovulni tashkil etadilar”. Shunday qilib, Xo‘jand uyezdida mahalliy aholidan 150 671 desyatina yer tortib olingan edi.

1914 yil 21 iyundagi qonunga muvofiq Mirzacho‘lning sug‘orilgan yerlariga o‘rnashish (zaseleniye) maqsadida “rus a‘yonlaridan barcha nasroniy mazhablardagi, tabaqaviy farqlanishsiz, ma‘lum moddiy ta‘minotga ega bo‘lganlar” jo‘natilar edi.

Shu tariqa chorizmning ko‘chiruvchilik siyosatida ikkita asosiy bosqichni ajratish mumkin: XX asr boshigacha va XX asr boshlaridan to 1917 yil fevralidagi ikkinchi rus inqilobigacha. Birinchi bosqichning xarakterli xususiyati joylarda aholi ortiqchasini ushlab qolishdan iborat edi.

90-yillarda Rossiya imperiazizm davriga kirgan edi. Bir tomondan, qishloq xo‘jaligiga kapitalistik munosabatlarning yanada kirib borishi, krestyanlik sinfiy differentsiatsiyasining kuchayishi, boshqa tomondan krestyan harakatining kuchayishi hukumatni qiyin ahvolga soldi. Chor hukumati o‘sha paytda siyosiy jihatdan ishonchsiz bo‘lgan krestyanlardan xalos bo‘lishga urinardi. Ko‘chiruvchilikdan burjuaziya ham manfaatdor edi. Biroq ko‘chirishga qarshi keng miqyosda pomeshchiklar chiqqan edi. Ikkala hukmron sinfnning manfaatlariga mos keluvchi kompromiss yechimni topishga intilib, samoderjaviye ko‘chiruvchilik siyosatida ikkilanish belgilarini namoyon qiladi. Dastlabki vaqtda

O'rta Osiyoga nisbatan chorizm harbiy-strategik xarakterdagi siyosat tutdi. O'lkani ko'chiruvchilik uchun rasmiy ravishda yopilishigacha (1897-1898) hukumat intilishlari asosan bosib olingan joylarda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga qaratilgan edi. Shuning uchun xam XX asr boshlarigacha O'rta Osiyo hali ortiqcha aholini ko'chirish uchun platsdarm sifatida qaralmagan edi. O'lkada rejali mustamlakalashtirish olib borilmagan. Ko'pchilik posyolkalarning paydo bo'lishi ko'chib kelganlarning xohishi yoki alohida ma'murlar faoliyatiga bog'liq edi. Yangi posyolkalarni rivojlantirish uchun hech qanday ma'muriy yoki xo'jalik choralar ko'rilmagan edi. O'lka oliy ma'muriyati o'zboshimchalik bilan paydo bo'lgan rus posyolkalariga (ayniqsa Mirzacho'ldagi) hech qanday e'tibor bermagan. shuning uchun u yerda aholining katta oqimi kuzatilgan. Faktik jihatdan krestyanlarning huquqsizligi ularning moddiy ahvolda o'z aksini topgan. Ularning ko'pchiligi uzoq vaqt davomida bir joyda yashab, o'z xo'jaligini ko'tara olmasdi.

O'rta Osiyoga ko'chib kelganlar oqimining kuchayishi, joylashtirilmagan krestyanlarning juda ko'plab yig'ilib qolishi o'lka ma'muriyatini juda qo'rqitib yubordi. O'lkani ko'chib kelganlar uchun rasmiy ravishda yangidan yopish haqidagi masala ko'tarildi hamda bir qator shoshilinch qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 1906 yilda Sir-Daryo partiyasi degan tashkilot tuzilib, uning vazifasi yangi posyolkalarni tashkil etishdan emas, balki faqat tadqiq etishdan iborat edi. Partiya ishi unda yetarlicha shtat bo'lmaganligi tufayligina muvaffaqiyatli amalga oshirilmadi.

Ikkinchi bosqichda chorizm ko'chiruvchilik siyosatining o'ziga xos xususiyati shu bo'ldiki, u mashhur stolipin islohotlariga asoslangan edi (eng ishonchsiz krestyanlarni chekka joylarga ko'chirishga, xo'jaliklarning otrubli va xutorli turlarinmi tuzishga va hokazolarga). Biroq O'rta Osiyoda xo'jaliklarning bunday turlari faqat 1910 yildan boshlab tashkil etilgan, Xo'jand uyezdidagi Mirzacho'lda esa – 1913 yildan keyin tashkil etilgan. Bunda ularning tashkil

topishi Rossiyadagi tajriba sigari jamoa xo‘jaliklarini buzish yo‘li bilan emas, balki erkin davlat yerlari deb nomlangan yerlar hisobiga olib borildi.

Mustamlaka tuzumi davrida hayotimizning ko‘pchilik soxalarida bo‘lganidek, Sirdaryo viloyati tarixini yoritishda ham ma‘lum siyosiy maqsadlarini ko‘zlab, soxtalashtirishlar amalga oshirildi. “Mustabid tuzum» mafkurachilari o‘tmishimizni kamsitishga, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni mensimaslikka, donishmand ajdodlarimizning teran tafakkuri, hayot falsafasi bilan yo‘g‘rilgan an‘analarimizni toptashga, bir so‘z bilan aytganda, tariximizni soxtalashtirishga uringanligi sizlarga ma‘lum”, deb ta‘kidlagan edi. Prezidentimiz I. Karimov. O‘sha davrda Sirdaryo tarixining boshlanishi proletar dohiysi nomi bilan, hattoki viloyat tarixi 1963 yildan boshlangan, degan asossiz fikrlar bildirildi. Vaholanki, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, Sirdaryo tarixi xalqimiz tarixining uzviy bir qismi sifatida shonli va qadimiydir. Zardushtiylilikning muqaddas kitobi «Avesto»da Sirdaryo «Danu» deb, qadimgi yunon tarixchilari asarlarida esa Yaxartes-Yaksart deb atalgan. Yurtimizga arablar kirib kelganidan so‘ng bu daryo solnomalarda «Sayxun» deb yuritiladi. O‘zining egallagan o‘rniga ko‘ra viloyatimiz So‘g‘dni Choch bilan, So‘g‘dni Farg‘ona orqali Xitoy bilan bog‘laydiki, muhim joyda joylashganligi sababli ham bu yerda qadimdan aholi yashab kelgan. Bu yo‘llarda joylashgan aholi manzilgohlari savdo-sotiq va o‘tib kelayotgan karvonlarni ta‘minlash kabi ishlar sharofatidan gullab-yashnagan edi.¹

Qadimgi Sirdaryo tarixi haqida ma‘lumot beruvchi muhim yozma manba qadimgi grek tarixchisi Arrianning «Iskandarniig harbiy yurishlari» asaridir. Milodiy II asrda yashagan Arrian ushbu asarida Makedoniyalik Iskandarning O‘rta Osiyoga yurishlari haqida batafsil ma‘lumot beradi. Shubhasiz, muallif voqealarni yoritishda o‘sha davr manbalaridan

¹ Qudratov S. Sardobalar o‘lkasi. T. 2001. 4 bet.

foydalangan. Unda yozilishicha, miloddan avvalgi 329 yili So'g'd poytaxti Maroqandni olgan Iskandar shimoli-sharqqa Tanais (Yaksart-Sirdaryo) tomon yurish qiladi. Maroqandning yon atrofidagi qishloq aholisining qattiq jazolaganligidan xabardor bo'lgan mahalliy qabilalar bu yurishga qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Jumladan, Arrianning yozishicha, Ustrushonaniig tog'li aholisi yunon-makedon qo'shinining oziq-ovqat yig'uvchi otryadlarini tor-mor etadilar. Mana shu yerda Ustrushona qayerdaligi to'g'risida aniqlik kiritib o'tsak.

Viloyat ilk bor alohida o'lka Ustrushona sifatida Beyshi, Suyshi va Tanshu kabi Xitoy yilnomalarida tilga olingan. Undan oldingi manbalarda o'lkamiz Sharqiy Sao deb yuritiladi. Otryadni tor-mor etgandan so'ng, bundan g'azablangan Iskandarning katta qo'shin bilan kelayotganini eshitgan mahalliy aholi barcha tomonlari tik qoya bo'lgan toqqa chiqib, yashiringanlar. Ular soni o'ttiz ming kishi atrofida bo'lgan. Iskandar ularni katta qiyinchilik bilan yenga olgan. Shundan so'ng Aleksandr Tanais tomon yo'l olgan. U yerda Aleksandriya-Esxata shahrini barpo etadi.

Aleksandriya-Esxatadan tashqari Arianda Sirdaryoning chap qirg'og'ida joylashgan yana 7 ta shaharning nomi tilga olinadi.

Yuqoridagi fikrlarimizda Ustrushona Xitoyning Tanshu yilnomasida ham zikr etilgan, dsb aytgan edik. Aynan o'lkamizning to'laroq nomlanishi Tan yilnomasida berilgan. Unda o'lkamiz Shuaydushana, Suydushana nomlari bilan beriladi. Tan imperatorlari saroyida o'lkamiz, shuningdek, Layviy-mag'rurligini sezgan holda bo'ysunmoq ma'nosini bildiruvchi nom bilan ham ataladi.

Viloyat qadimgi aholisining tili so'g'd tiliga yaqin Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida yashagan aholi tiliga yaqin bo'lgan. O'lkamizda zarb etilgan 6-8 asrlarga oid tangalar Ustrushonaning ilk hukmdorlari Chirdmish, Satagari, Raxang haqida bizga ma'lumot beradi. Hokimiyat otadan bolaga o'ggan.

VIII asr boshida Ustrushonaga arablar bostirib kiradi, 893 yili afshinlar agʻdarilib tashlanib, Ustrushona somoniylar davlati tarkibiga kirgan.

Oʻrta asrdagi Ustrushona haqida birmuncha toʻliq maʼlumotlar arab yozma manbalarida mavjuddir. Ularda aytilishicha, oʻlka hududi Xoʻjanddan Samarqandgacha, Sirdaryo daryosidan va Mirzachoʻldan to Hisor tizma togʻlarigacha boʻlgan. Istaxriyning malumotiga koʻra. Ustrushonani koʻpgina qismni togʻlar egallagan boʻlib, unda «kemalar suzishi mumkin boʻlgan daryo ham, koʻl ham yoʻq».

N. Negmatov fikricha, Ustrushonaning tekis qismida Bunjikat, Sabat, Zomin, Shavkat, Fagkat rustaklari, togʻli qismida esa-Mink, Asbanikat, Biskar, Bangam, Vakar, Shagar, Mascha, Burgar va Buttam rustaklari joylashgan.

Ustrushonaning poytaxti Bunjikat shahri boʻlgan. Uylar va boshqa imoratlar loy va yogʻochdan qurilgan. Shaharda saroylar, hovlilar, bogʻlar, uzumzorlar, masjid va qamoqxona boʻlgan. Bunjikat sersuv boʻlib koʻpgina tegirmonlari boʻlgan. Tashqaridagi devorda toʻrtta darvoza boʻlib, ular Zomin, Marsmanda, Nujaket va Kahlobod yoʻnalishida boʻlgan. Bunjikat Tojikistondagi Shahriston qishlogʻi joyida joylashgan.

Ikkinchi yirik shahar Zomin boʻlgan. U Fargʻonadan Soʻgʻdga olib boradigan katta yoʻl boʻyida joylashgan. Uning boshqa nomi Sarsanda (Susanda) boʻlgan. Uni arab sayyohi Havkal borib koʻrganida, eski shahar xarobalariga aylangan, bozor va masjid “yangi” shaharga oʻtkazilgan boʻlgan.

Zomindan soʻng koʻpincha Dizak (Jizzax) tilga olinadi. Bu shahar tekislikda, Soʻgʻddan Shoshga olib boradigan karvon yoʻlida joylashgan boʻlib, Feknan rustaki markazi boʻlgai. Dizak koʻp sonli rabotlari va uzoq ellarga tanilgan jundan ishlangan kiyimlari bilan mashhur boʻlgan.

Mamlakatni afshinlar deb nomlangan podshohlar boshqargan. Shu munosabat bilan arab tarixchisi Xilol as-Sabi xalifa al-Muʼtazim billoh «Haydar

bin Qovusni al-Afshin laqabi bilan nishonladi, chunki u ustrushonalik bo'lgan, alqafshin esa ularning tilida «podshox» demakdir deb yozadi¹.

Rivojlangan o'rta asrlar Ustrushonasi haqida birmuncha ko'proq ma'lumotlar bor. Ustrushona boshqa o'lkalarga qaraganda arablar tomonidan kechroq bosib olingan, chunki Uning axolisi qattiq qarshilik ko'rsatgan. 752 yil o'lka hokimi xitoylilardan yordam so'ragan, lekin rad javobini olgan. Faqat 893 yildagina Afshinlar sulolasi ag'darilib, Ustrushona somoniylar davlati tarkibiga kirgan.

Sirdaryo viloyati xududida arab geograflari tomonidan eslatib o'tilgan ikkita manzilgox bor. Bu Sabat va Xovosdir. Sabat o'sha nomdagi rustakning markazi bo'lgan. Geograflarning bir qismi Sabatni Ustrushona shaharlaridan biri deyishsa, (Istaxriy, Xavkal, Yoqut), ayrimlari (Muqaddasiy, Qudamiy) uni katta qopshloq bo'lgan, deb hisoblashadi.

O'rta asrlardagi Xovos o'sha nomdagi rustakning markazi bo'lgan. Yozma manbalarda u haqdagi ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Arab geograflari esa uni faqat karvon yo'llari chorrahasidagi manzilgoh sifatida tilga olishadi.

Rivojlangan o'rta asr davrida Xovos shahar bo'lmagan.

Respublikamiz mustaqillikka erishganligi sharofati tufayli tariximizni ko'pgina masalalari singari yurtimiz hududida shahar va davlatlarning paydo bo'lish masalasida ham haqqoniy va xolis fikrlar bildirish imkoniga ega bo'ldik. Yurtimiz mustaqilligini ko'rolmayotgan ayrim siyosiy kuchlar kimsalar O'zbekiston o'zining mustaqillik davlatchilik tarixiga ega emas, shu sababli ular o'zlarini o'zlari mustaqil boshqara olmaydi, degan tuhmat va bo'htonlar bildirishmoqda.

Shu sababli ham bugungi kunda yurtimiz hududida davlatchilikning paydo bo'lish masalasini o'rganish tarixchilarimiz oldida turgai muhim vazifalardandir. 1998 yil yozida Respublikamiz Prezidentining yurtimizning bir guruh tarixchi

¹ Гафуров Б. Таджики. Душанбе, Ирфон, 1989. С.75.

olimlari bilan bo'lgan uchrashuvida bildirgan fikrlardan so'ng O'zbekiston davlatchiligini o'rganish borasida bir o'ator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo, Farg'ona vohalarida davlatchilikning paydo bo'lish masalasida Akademik Yahyo G'ulomov nomidagi Respublika «O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi» seminari va bir qator boshqa anjumanlar uyushtirilnb, ularda yurtimiz tarixiy — geografik o'lkalarida davlatchilikning paydo bo'lish masalasida yangi ilmiy moslangan fikrlar bildirishdi. Biroq, Sirdaryo voxasida davlatchilik tizimini paydo bo'lish masalasi tarixchilar e'tiboridan chetda qoldirilgan edi. Bunga ma'lum manoda Sirdaryo qadimda va o'rta asrlarda, kimsasiz cho'l bo'lgan va bu yerlar SHo'rolar hukmronligi davridagina o'zlashtirilgan, degan noto'g'ri tushuncha ham sabab bo'lmoqda. Bularning hammasi yolg'on ekanligini yuqoridagi aniq ma'lumotlar orqali isbot qilish mumkin.

Zero, Sirdaryo tarixi ham o'zbek davlatchiligi tarixining ajralmas qismi sifatida uzoq tarixga ega ekanligi mustaqillik sharofati tufayli haqiqat yuzaga chiqdi.

1.3. Sirdaryo viloyatining madaniy hayoti tarixidan

Sirdaryo viloyatining madaniy hayoti o'ziga xos tarixga ega. Mustaqillik yillarida, xususan, 2003-2004 o'quv yilida Sirdaryo viloyatida 308 umumiy ta'lim maktabi bo'lib, 156 ming o'quvchi, shu jumladan, 14 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 3659 o'quvchi ta'lim-tarbiya oldi. Viloyatdagi 14 musika va san'at maktabida 1300 o'quvchi, 22 sport maktabida 11 mingga yaqin o'quvchi ta'lim oldi.

Xalq ta'limi tizimida xalqaro hamkorlik borasida ham ma'lum ishlar amalga oshirilmokda. Jumladan, Mirzaobod tumanidagi 21-maktab YUNESKO maktabi Kengashiga a'zo, YUNISEF tashkiloti bilan hamkorlikda viloyatda 5 ta xonadon-bog'cha tashkil etilgan.

Sirdaryo viloyatida 2 viloyat gazetasi («Sirdaryo haqiqati», «Sirdarinskaya pravda»), 9 tuman gazetasi, 5 shahar gazetasi («Guliston yangiliklari», 1989; «Gulistanskiye novosti», 1989; «Yangiyer tongi», 1967; «Shirin Sadosi», 1995; «Baxtnoma», 1996 yildan) bosmadan chiqadi. Viloyatda, shuningdek, 14 tarmoq, 1 xususiy gazeta («Yog'du plyus», 1994 yildan chiqadi), 1 jurnal («Universitet axborotnomasi», 2001 yildan chiqadi) nashr etiladi.

Sirdaryo viloyatida dastlabki radioeshittirishlar 1963 yildan boshlangan. Viloyat radiosi oyiga 21 soat 20 minut hajmida eshittirishlar beradi. Shuningdek, O'zbekistan radiosining birinchi «O'zbekistan» kanalida radioeshittirishlar retranslyatsiya qilinadi.

1996 yilda viloyat telestudiyasi tashkil etilib, teleko'rsatuvlar bera boshladi. Sirdaryo viloyatida shuningdek, «Aloqa A.K.» tijorat televideniyesi (2001 yildan), «Shodlik R» xususiy firmasiga qarashli «Kometa» kabelli telestudiyasi (2003 yildan) faoliyat ko'rsatadi.

Me'moriy yodgorliklardan viloyat hududida Sharof Rashidov tumanidagi Sardoba (XVI asr)saqlanib qolgan.

Sirdaryo teatri O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 1974 yil 1 oktabridagi qarori asosida tashkil etilgan. 1977 yili unga Olim Xo‘jayev nomi berilgan. Faoliyatini 1975 yil 26 sentabrda viloyatning markazi Guliston (sobiq Mirzacho‘l) shahrida A. Qahhorning qissasi asosida yozilgan “Muhabbat” dramasi bilan boshlagan. Dramaning ijodkorlari – inssenirovka muallifi R. Qodirov va yigirma to‘rt nafar ijrochilarning hammasi institutning bitiruvchi talabalari edi. Spektaklni kurs raxbari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, dotsent I. V. Radun sahnaga qo‘ygandi. Teatrning direktorligiga teatrshunos, 1954 yildan boshlab shu yerda Mirzacho‘l kolxoz va sovxoz teatriga boshchilik qilgan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi Asad Fayzullayev, bosh rejissorlik lavozimiga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Rixsi Orifjonov, navbatchi rejissorlikka G‘ofir Hamidillayev, adabiy emakdoshlikka institut teatrshunoslik kursini tugatgan Adham Abdullayev tayinlanadilar. Dirijyorlikka A. Muborakov va O. Karimov. Bitiruvchilarning safiga chetdan jalb etilgan ellikdan ortiq ijodkor aktyor, honandayu sozanda, rassomlar bilan qo‘shilib yangi teatr jamoasi tashkil topadi. Birinchi “Muhabbat” spektaklida band talabalar quyidagicha edi: Marg‘uba – M. Abdullayev, Javlon – A. Usmonov, A. Egamqulov, Muborak – M. Rajabova, Xakimjon – M. Mamatxonov, Anvar – A. Azimov, Muxayyo – G. Raxmatova, Muattar – A. Fozilova, Oqsoq chol – Sh. Jumayev, Raximjon Sh. Boshbekov, Naimjon – S. Mansurov, Alisher – T. Sobirov, Bahodir – B. Yo‘lchiyev, Akmal – A. Egamqulov, T. Mirzayev, Militsioner – S. Mirzayev, Ozoda – O. Abdullayeva, Rustam – R. Hamdamov.

Chetdan jalb etilgan ijrochilar orasida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Abduhamid G‘ofurov, Shafoat Raxmatillayeva, sobiq Mirzacho‘l kolxoz va sovxoz teatrida ishlagan T. Qosimova, singari ijodkorlar bo‘lib, yoshlarga sahna ishlarida namuna edilar.

Teatrning hozirgacha kechgan tarixi davomida uning bosh rejissorligi lavozimida R. Orifjonov (1975 -1978), Maxkam Maxamedov (1978-1982), Jo'ra Maxmudov (1983-1994), Mamatxon Asqarov (1994 - 1996), Valijon Umarov (1996-2001), keyin A. Yusuvaliyev va G. Najidova hozirgi kunda bosh rejissor yana M. Asqarov.

Teatrda dastlabki besh yil ichida sahnalashtirilgan A. Balakayevning "Ona yuragi" (rej. R. Orifjonov), K. Xoinskiyning "Daxshatli tun", M. Karimov va R. Hamroyevning "Saxro sayyorasi" (rej. G'. Hamidillayev), V. Shukshinning "Serg'ayrat kishilar" (1976); Xamzaning "Boy ila xizmatchi" (rej. R. Orifjonov), Shuxrat va S. Jalilning "Ona qizim" (1977); A. Shamxalovning "Oqibat" (rej. G'. Xamidillayev), M. G'aniyevning "Vijdon" (rej. G'. Xamidillayev), Mashrab Boboyevning "O'ttiz yoshlilar" (rej. M. Mamaxamedov, 1978), B. Xalil va T. Xasanovning "Gulbahor qani?", Y. Xalilov, D. Saidaminovanning "Sehrli to'rqovoq" (rej. G'. Xamidillayev), V. Mayakovskiyning "Hammom" (rej. M. Maxamedov), A. Abdug'ofurovning "O'g'rini qaroqchi urdi" (rej. G'. Xamidillayev 1979) spektakllari misolida yosh ijrochilar muhim ijodiy tajriba maktabini o'tash bilan birga tamoshabin va jamoatchilik ishonchini uzil-kesil qozondilar. Ularning anchagina qismi o'zlariga munosib rollarni ijro etish bilan birga, ijodiga xos alomatlarni belgilab ham oldilar. O. Abdullayeva, A. Yusuvaliyev, Sh. Boshbekov, M. Orifho'jayeva, X. Jumayev, G. Raxmatova, T. Qosimova ana shu xos alomat va imkonlarni qo'lga kiritganlarning oldingi safida edilar.

A. Yusuvaliyevning G'ofir ("Boy ila xizmatchi"), Axror ("Saxro sayyorasi"), Qoravoy ("Oqibat"); O. Abdullayevaning Gulchehra ("Arshin mol olon"), Jamila, Durdona ("Saxro sayyorasi"), Charos ("Ona qizim"), Mamlakat ("O'ttiz yoshlilar"); M. Orifxo'jayevaning Jamila, Lutfi xola ("Ona qizim"), Xosiyatxon ("Vijdon"), Sh. Boshbekovning Sulaymon

(“Arshin mol olon”), Purna (“Ona yuragi”), Xasan (“Ona qizim”), Shukurbek (“Oqibat”), Muallif va Shavkat (“O‘ttiz yoshlilar”) rollarining ijrosi jamoa besh yillik mehnatining sara natijalari edi.

1980 yildan boshlab sahnalashtirilgan V. SHekspirning “Richard - III”, A. Gelmanning “Imzo”, M. Boboyevning “Yer tomiri”, B. Nasriddinovning “Gulshandagi shung‘iyalar”, T. To‘la va I. Akbarovning “Qizbuloq” (rej. M. Maxamedov), Xurshid – T. Sodiqov, R. Glierning “Layli va majnun”, Sh. Boshbekovning “Oq otlar uchun vals”, Uyg‘un va I. Sultonning “Alisher Navoiy” pyesalarini sahnalashtirilishi teatrning imkon va intilishlaridan guvohlik berardi. “Richard - III” spektaklida Adxam Yusuvaliyev ijrosidagi bosh qahramon, Sh. Raxmatillayevaning Qirolichasi, A. G‘ofurovning Fransiya qiroli, “Yer tomiri”dagi ijrochilardan M. Normatov (Begimqul), A. G‘ofurov va Yusuvaliyev (Mallayev), Sh. Raxmatillayeva va M. Begmatova (Zebo), “Gulshandagi shung‘iyalar”da R. Xasanov (Odil), M. Emilova (Nozigul), “Qiz buloq”da A. Abdullayev (Gung), “Layli va Majnun”da R. Xamdamiy, V. Abdullayev (Qays), O. Abdullayeva, F. Islomova (Layli), “Oq otlar uchun vals”da Sh. Jumayev (Tesda), S. Madisayeva (Munis) – larning ijro madaniyati tinmay o‘sayotgan va Kamolot sari yuzlanayotgan ijodiy mehnat samarasi edi.

Jo‘ra Maxmudov teatrning bosh rejissori lavozimida teatr qo‘lga kiritgan yutuq va an‘anaga aylanayotgan odatlariga amal qilib ish yuritdi. Ayniqsa uning Molyerning “Sohta oqsuyak”, M. Karimovning “Insonlikka nomzod”, A. Dudarevning “Oddiy askarlar” pyesalarini sahnalashtirish, shu jumladan teatr tashkil bo‘lgan yillardan binoan repertuarda bolalar uchun spektakllarni nazarda tutishdan tortib, M. Muxamedov boshlagan rus tomoshabinlari uchun rus tilida tomoshalar qo‘yishgacha uning L. Ustinovning “Staramodniye chudesi”, A. Ilovskiyning “Priklyucheniye Chandu” pyesalari bo‘yicha sahnalashtirgan tomoshalari buni isboti edi.

“Soxta oqsuyak” spektaklidagi yetakchi timsollardan Jurden (R. Xasanov, T. Qanoatov), Jurden xonim (A. Xaitova, T. Qosimova), Lyusil (O. Abdullayeva, M. Begmatova), Kleont (R. Karimov), Dorant (T. SHeraliyev, N. Primov), Dorimena (SH. Raxmatillayeva); “Insonlikka nomzod”dagi Aliyev (A. G‘ofurov, A. Yusuvaliyev), Azim (R. Xasanov), Farog‘at (M. Begmatova, O. Xudoyberdiyeva); “Oddiy asakarlar”dagi Dugin (A. Abdullayev), Bushtets (A. Yusuvaliyev) singari rollarining ijrolari talqinda yetukligi bilan ajralib turardi.

G‘. Xamiddilayev sahnalashtirgan “Alisher Navoiy” (1984), “Maysaraning ishi” (1986) spektakllari markaziy teatrlar erishgan yutuqlardan ibrat olib amalga oshirilgan ishlarining davomidek teatrdagi ijro mahoratini oshirishda maktab yo‘lini o‘tadi. A. Yusuvaliyev (Navoiy), N. Umarqulov (Jomiy), R. Xasanov, N. Primov (Boyqaro), M. Begmatova (Guli), Sh. Raxmatillayeva (Maysara), R. Dadaboyeva (Oyxon), R. Xasanov (Cho‘pon), A. Yusuvaliyevning (Mullado‘st) ijro amallari misolida shunday ish ko‘rilgani ko‘zga ochiq tashlanib turardi.

J. Maxmudov jamoaning murabbiy, rahnamosi sifatida teatrning o‘n yilligida amalga oshirgan ishlari, iqtidorli, harakatchan yoshlar imkoniyatlarini e‘tiborda tutib ularni mas‘uliyatli rol ijrolari, xatto spektakllarni sahnalashtirish amallariga ham jalb eta boshlaydi. Chunonchi, asosiy kasbi teatrshunos Adham Abdullayev teatrdagi adabiy emakdoshlik bilan bir vaqtda spektakllarda rollar ijro eta boshlagani, bu borada ham imkoni yetarli ekanini e‘tiborda tutib, murakkabroq rollar ijrosi bilan birga unga pyesalarni sahnalashtirish imkonini ham beradi. Oqibatda A. Abdullayev A. Chexovning “Iltimos” vodeviliga A. Jamol, S. Axmad intermediyalaridan sahnalarni moslashtirib yaxlit tomosha sahnalashtiradi (1983). Ketma-ket, muntazam ravishda “Chorbog‘dagi hangomalar”ni, Sh. Jumayevning “To‘y hangomalari”, K. Avazning “Marvarid taqqan ayol”, J.

Maxmudovning “Ex ovsinlar” pyesalarini postanovka qiladi. Teatrning yetakchi aktyorlaridan biriga aylanib ulgurgan A. Yusuvaliyev ham 1989 yildan binoan A. Vampilovning “Istoriya s metranpajem” (rus tilida), V. Orlovning “Oltin jo‘ja”, Shuxratning “Besh kunlik kuyov”, N. Abramiyevning “Qorqiz va shum jodugarlar”, X. Nomozovning “Vaqqos va Paqqos”, S. Rizazodaning “Bo‘g‘irsoq”, A. Balakayevning “Ona yuragi”, Alp Jamolning “Mehribonlar” pyesalarini sahnalashtirib rejissurada ham ko‘zi pishiydi. Shu singari ijodiy o‘rish jarayoni ko‘pchilik aktyor va aktrisalar, umuman olganda teatrga xos alomatga aylanib, odatiy tus oladi.

Saksoninchi yillarning oxiri va istiqloq arafasidagi teatr U. Xoshimovning “To‘ylar muborak”, V. Shekspirning “Qirol Lir”, V. Matmurodovning “Uch og‘ayni shovvozlar”, I. Sodiqovning “Afandining uch xotini” (rej. J. Maxmudov), I. Tusunovning “Qismat” (rej. J. To‘rayev) pyesalarini sahnalashtiradi. Mazkur spektakllar misolida teatr hamma janrga oid ham zamonaviy dolzarb mavzular, ham jahon mumtoz merosiga mansub xalq ardog‘idagi asarlarni sahnaga olib chiqadi va arzigulik talqin natijalariga erishadi. Chunonchi “Qirol Lir”da A. Yusuvaliyevning Liri, Sh. Bekmurodovning fransuz qiroli, M. Nurmatovning graf Kenti, R. Xasanov, T. Qanoatovning graf Glosteri; Sh. Raxmatillayeva va Z. Eshmuradovning Gonerilyasi; A. Xaitova va F. Yusuvaliyevaning Reganasi; O. Abdullayeva va Z. Maxamadaliyevaning Kardeliyasi; R. Karimovning masxara-bozi; “To‘ylar muborak”da A. Abdullayevning Mo‘minjon, B. Rajabovanning Madina, F. Yusuvaliyevaning Kimyo xola obrazlarining talqini teatr aktyorlik san’ati yutuqlarini boyitdi.

Kamolot sari yuzlangan teatr jamoasi respublikada ko‘zga ko‘ringan sahna ustalari bilan hamkorlikka intilib, Bahodir Yo‘ldoshev va G. Brinning hamkorlikka chaqiradi. Ular Guliston va Abror Hidoyatov nomidagi teatr sahnasida V. Shukshinning “Dardimni kimga aytay” va J.

Franso (J. Saraan)ning “Ma’mura kampir” pyesalarini sahnalashtirib, birgalikda Guliston va poytaxt tomoshabinlariga taqdim etadilar. Spektakllarda erishilgan natijalar ma’lum darajada teatr butun tarixi davomida erishgan yutuqlari va imkon darajasiga tarozudek bo‘lib uni viloyat teatrlari safidan munosib, shuning bilan birga faxrli o‘rinni egallashiga sababchi bo‘ldi. “Ma’mura kampir” spektaklida Ma’mura rolini Sh. Raxmatillayeva bilan F. Yusuvaliyeva ijro etishdi. A. G‘ofurov – Axmadjon, T. Qanoatov – Faxriddin, M. Nurmatov – O‘roz, R. Yunusova – Maryam, A. Yusuvaliyev – Fazliddin, A. Xaytmatova, Z. Maxamadaliyeva – Asalxon, A. Abdullayev – Xayrilla, Z. Eshmuradova – Elmira, F. Boboyorova – Gulmira rollarida sahnaga chiqishdi. “Dardimni kimga aytay?”da esa A. G‘ofurov, M. Nurmatov, A. Yusuvaliyev, T. Qanoatov, A. Abdullayevlar asarda ko‘tarilgan muammolarni talqinlar yo‘li bilan xalq etishda barcha imkoniyatlarni ishga solib ish ko‘rishdi. Har ikkala spektakl teatr repertuarining bezagi bo‘lib qoldi.

Yuqorida Mustaqillikdan ikki minginchi yilga qadar teatr repertuaridan M. M. Seytaliyevning “Shayton kelin tamoshasi” (rej. M. Maxamedov), A. Obidjonning “Qorinbotir” (rej. X. Qanoatov), Shuxratning “Qo‘sha qaringlar”, P. Mo‘minning “Tuyaqush boyaqish”, Y. Bo‘latning “Dabdabali to‘y”, Sh. Boshbekovning “Tentak farishtalar”, “Zo‘rdan zo‘r chiqsa”, J. Maxmudovning “Ayollar faryodi” (rej. M. Asqarov), X. Jovidning “Amir Temur” singari pyesalari o‘rin oldi. Soxibqiron tavalludining olti yuz oltmish yilligini nishonlashga bag‘ishlab o‘tkazilgan respublika teatr festivalida “Amir Temur” spektakli ham rejissura, ham ijrochilikda puxta ishlangan asar sifatida e’tirof etildi. Ozarbayjon dramaturgi Xusain Jovidning 1925 yili yozilib, sho‘ro xukumati tomonidan sahnalashtirishga man etilgan bu asarni ham g‘oyaviy, ham badiiy ko‘rkamligi Sirdaryo teatr etiborini o‘ziga jalb etgan edi. Binobarin

spektaklda band etilgan ijrochilar- rejissor V. Umarov, rassom A. Zinovyev bilan hamjihat o'z rollari ustida mehr bilan ishlab ko'rkam, mahobatli, sahna asarini ijod etdilar. Bu yigirma birinchi asr bo'sag'asida jamoaning qo'lga kiritgan yirik g'alabalaridan edi. Spektaklda barcha rollarni o'z o'rnida to'la-to'kis rejalab qo'yilgan o'lchamlar me'yorlari bilan tar'riflab berishga erishildi. Unda artistlardan B. Rizaqulov – Amir Temur, A. Xayitova – Tuman og'a, T. Qanoatov – Devonbegi, A. Abdullayev – Oqbug'a, F. O'rinov – O'rxon, O. Abdullayeva – Olmos, R. Xasanov – shoir Karmoniy, M. Mamatillaoxunova – Qoraqush, A. Yusuvaliyev – Yildirim Boyazid, N. O'rinov – Temir qoya, N. Xolmatova – Melicha, M. Asqrov – Ali poshsho, Sh. Jumayev – Shayx Buxoriy rollarini ijro etdilar.

Ikki minginchi yildan boshlab, besh yil mobaynida G. Najidova teatrdan bosh rejissorlik lavozimida ishlab G'. G'ulom qissasi bo'yicha J. Maxmudov yozgan "Shum bola", arab afsonasi asosida G. Najidovanning "Oloviddinning sehrli chirog'i", K. Galdonining "Ayollar mashmashasi", A. Volkovning "Javoxirlar shaxri sehgari", I. Tusunovning "Standart kuyov", Aka-uka Grimmning "Bremen sozandalari" pyesalarini sahnalashtirdi. "Shum bola" va "Oloviddinning sehrli chirog'i" teatr repertuaridan yetmishinchi yillardan boshlab og'ishmay o'rin olib kelayotgan bolalar uchun atalgan pyesalarning davomi bo'lsa, "Ayollar mashmashasi" teatr uchun odat tusiga kirgan jahon mumtoz merosiga navbatdagi murojaat edi. Shunday ekan, mazkur pyesalarni avval erishilgan tajribalarni e'tiborda tutib qunt bilan ishlanishi tabiiy hol edi.

J. Maxmudov tomonidan "Shum bola" qissasini masxaraboz-qiziqchilar Aka Buxor va Akrom qiziq timsollari ishtiroki bilan g'aroyib sarguzasht janrida bitilgan quvnoq tomoshada Shum bolani – Nozima Usmonova, Omonni – Musurmonqulov, Aka Buxorni – Sharif Jumayev, Akrom qiziqni – Adxam Abdullayev, Abdulla Fonusni – Ro'zimat Karimovlar ijro etishdi. "Ayollar

mashmashasi”da Pantalone – A. Abdullayev, Toni – I. Qosimov, Kekkina – R. Yunusova, Beatrice – Mamatillaoxunova, Eleonora – L. Mamanazarova.

Teatrning yetakchi aktyorlari, xususan A. Yusuvaliyevning tashabbusi bilan Y. Onilning “Qayrag‘och ostidagi ehtiros” pyesasini sahnalashtirilishi teatrni jahon mumtoz merosiga navbatdagi so‘nggi murojaati edi (rej. M. Xoliqov, 2007). Qunt va o‘ziga xos yondoshuv bilan amalga oshirilgan bu spektaklda Kebet rolini A. Yusuvaliyev, Semyonni R. Karimov, Piterni I. Allayorov, Ebenni I. Qosimov, Abbini D. Mirsoliyevalar ijro etishdi. “Qayrag‘och ostidagi ehtiros”dan tashqari 2005-2008 yillar orasida D. Rodarning “Chippolino”, M. Xudoyqulovning “Ibtido”, T. Malik asari asosida (M. Umarov inssenirovkasi) giyohvandlikka qarshi kurash mavzusida “Zaharli tomchilar”, M. Behbudiyning “Padarkush”, F. Musajonovning “G‘aroyib tamosha”, F. Egamberdiyevning “Qor yog‘maydigan mamlakat”, I. Tursunovning “Firibgar” pyesalari sahnalashtirildi.

Teatrda hozir faoliyat ko‘rsatayotgan ijodiy va xo‘jalikka rahbarlik qilayotgan mas’ul hodimlar quyidagilardir: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar - A. Yusuvaliyev, O. Abdullayeva, Sh. Jumayev, A. Abdullayev, R. Karimov, M. Tillaoxunova, I. Qosimov; artistlar Z. Eshmuxamedova, R. Yunusova, Q. Rustamov, Sh. Kattaboboyev, I. Allayorov, M. Jumanov, X. Musurmonqulov, Nazmiddin Nazarov, Nuriddin Nazarov, Sh. Jumanova, F. Urunov, N. Urunov, Sh. Abdullayev, L. Mamanazarova, R. Xayitova, A. Danayev, M. Xo‘jamqulov, D. Mirsoliyeva, B. Jumaboyeva, N. Tojiboyeva, M. Abdimo‘minov, Sh. Karimov, F. Karimov, F. Qoraboyev. Bosh rejissor M. Asqarov teatr direktori Ravshan Rajabov.

II. Sirdaryo viloyatining sovet hukmronligi va mustaqillik davri tarixi

2.1.Sirdaryo viloyatining sovet hukmronligi davri tarixidan

XX asrning 20-yillar oxirlariga kelib respublika qishloq xo'jaligi, ayniqsa paxtachilik sohasining Markaz hukumatiga qaramligi, paxta yakkahokimligi kuchaydi. Chunonchi, 1927-1928 xo'jalik yilida o'lkadan Markazga olib ketilayotgan tovarlar umumiy qiymatining 77,8 foizini paxtachilik maxsulotlari tashkil etgan. Buning ustiga sovet mamlakati ehtiyoji uchun etishtirib berilayotgan o'zbek paxtasining xarid narxi dunyo bahosidan ancha kam belgilanardi. G'alla narxlarining bu davrda mamlakat miqyosida 20-25 foizga pasaytirilganligi ayniqsa 1927 yilgi g'alla tayyorlash sohasidagi ishlarda jiddiy qiyinchiliklar tug'dirgandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligini asosini paxta yakkahokimligi tashkil etdi.

Garchi ikkinchi jahon urushi va uning yakunlari sovetlar mamlakati foydasiga hal bo'lib, bundan keyin uning xalqlari oldida ijtimoiy taraqqiyotning yangi marralari ochilgandek ko'rinsada, biroq tez orada totalitar tuzumning ularga zug'umi, zo'ravonligi, ta'sir-tazyiqi yangidan kuchaya bordi. O'zbekiston iqtisodiyotini bir tomonlama rivojlantirish, uni mamlakatning asosiy paxta bazasiga aylantirish, bu hududda paxta yakkahokimligini kuchaytirish - Ittifoq hukmdorlarining bosh maqsadiga aylandi. SSSR XKS va VKP (b) MQning 1945 yil 15 iyuldagi «O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish choralari to'g'risida» gi va SSSR XKSning 1946 yil 2 fevraldagi «1946-1953 yillarda O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlari to'g'risida» qabul qilgan qarorlari ham shu maqsadga qaratilgan edi. Tub aholi manfaatlariga hamohang bo'lmagan, paxta yakkahokimligini

kuchaytirishga yo'nalgan bu qarorlar O'z KP MQning 1945 yil sentabrida bo'lgan XII plenumida muhokama etilib, ijro etish uchun qabul qilindi.

O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirishga mo'ljallangan mablag'larning katta qismi paxtachilikka ajratildi va uning bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarga sarflandi.

Respublika traktor parki sezilarli ko'paydi, kolxozlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi MTS lar soni 245 taga etdi, ulardagi traktorlar soni 1950 yilda 29,5 mingtani, paxta terish mashinalari soni 3617 tani tashkil etdi.

Respublika qishloq xo'jaligining yuk avtomobillar parki 1950 yilda 7934 ta yuk avtomobillari va avtotsisternalarni tashkil qildi.

1950 yilga kelib amalga oshirilgan muhim tadbirlardan yana biri, bu mavjud jamoa xo'jaliklarining yiriklashtirilishi bo'ldi.

O'zbekiston SSRda 1777 ta mayda kolxozlar o'rniga 752 ta yirik kolxozlar tashkil etildi.

Hukmron sovet mafkurasining zo'r berib yurt odamlari o'rtasida soxta vatanparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik g'oyalarini yoyishi, doimiy mehnat safarbarligining o'tkazilishi va shu singari zo'rma-zo'raki tadbirlar natijasida respublikada paxtachilik va boshqa sohalar butun choralar bilan rivojlantirib borildi. Agar 1940 yilda gektaridan 14,9 ts. paxta hosili olingan bo'lsa, 1950 yilda respublika paxtakorlari 2282,4 ming tonna paxta xomashyosi etishtirdilar, hosildorlik gektariga 20,1 ts.ni tashkil qildi.

50-yillardan boshlab Markaz amri bilan respublika mehnat ahlining butun e'tibori taqir va bo'z erlarni o'zlashtirish va u erlarda paxtachilik xo'jaliklarini yangidan tashkil etishga qaratildi. Sobiq KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1956 yilgi «Paxta etishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRdagi Mirzacho'l qo'riq erlarini sug'orish to'g'risida»gi, 1958 yilgi «O'zbekiston SSR, Qozog'iston SSR va Tojikiston SSR dagi Mirzacho'lni sug'orish va o'zlashtirish ishlarini yanada

kengaytirish va jadallashtirish to'g'risida»gi qarorlariga asosan Mirzacho'lda katta maydonlarda qo'riq erlarni o'zlashtirish ishlari olib borildi.

Yangi erlarni o'zlashtirish jarayoni yangi sovxozlar, ularning xo'jalik binolari, aholi yashaydigan poselkalar bunyod etish bilan birga olib borildi. 1956-65 yillarda Mirzacho'lda 84 ming gektar yangi er o'zlashtirildi, 16 ta paxtachilikka ixtisoslashgan, bitta bog'dorchilik-uzumchilik sovxozlari tashkil etildi. Shu yillarda o'zlashtirilgan joylarda 456 ming kv metr turar joy binolari, o'nlab maktablar, bolalar bog'chalari, kasalxonalar, oshxonalar, madaniy maishiy muassalar barpo etildi. 170 kmli temir va 759 km avtomobil yo'llar qurildi, 637 km elektr liniyalari o'tkazildi, xo'jaliklar, turar joy binolari gazlashtirildi. Mirzacho'l erlarini sug'orish, meliorativ holatni yaxshilash tadbirlari amalga oshirildi. Janubiy Mirzacho'l kanali qurildi. 1957 yilda Yangier va 1961 yilda Guliston shaharlari vujudga keldi. 1963 yil 16 fevralda markazi Guliston shahri bo'lgan Sirdaryo viloyati tashkil etildi. Viloyatda paxta ekiladigan er maydonlari 1956 yildagi 130 ming gektardan 1965 yilda 211 ming gektarga, paxta xom-ashyosi etishtirish esa 243 ming tonnadan 441 ming tonnaga ko'paydi.

Respublika qishloq xo'jaligida paxta etishtirish salmog'ining ortib borishi davomida o'zbek halqi nomini ne zamonlar dunyoga mashhur qilgan muhim ziroatchilik sohalari: shirin-sharbat meva, poliz, sabzavot, sohibkorlik, donchilik va boshqa mahsulotlar etishtirish asta-sekin kamayib, qisqarib bordi. Eng achinarlisi shuki, xalqimizning azaliy mashg'uloti samarasi bo'lgan bu xil mahsulotlarning ko'pi bora-bora respublikamizga chetdan keltiriladigan bo'lib qoldi. Masalan, bug'doy, arpa etishtirish imkoniyati katta bo'lgani holda, uni ekish uchun sug'oriladigan erlar ajratilmas, shu bois bu ekin turlari asosan lalmikor erlarda etishtirilardi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda sanoatni tiklash va rivojlantirish hukmron Markaz oliy manfaatlaridan kelib chiqilib, uning

«sotsializm va kommunizm jamiyati» qurishdan iborat bosh strategik vazifalari, dasturiy rejalariga asoslanib hamda O'zbekistonning boy xomashyo va mineral resurslaridan maksimum foyda olishni ko'zlab bu sohaga e'tibor qaratib borilgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti va uning muhim bo'g'ini sanalgan sanoati urushdan keyingi 1946-1950 yillarda tiklandi va rivojlanib bordi. 1946-1950 yillarda 150 dan ziyod yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Quvvatiga ko'ra SSSRda uchinchi o'rinda turuvchi Farxod GESning birinchi va ikkinchi navbatlari qurib bitkazildi. 1- Oqqovoq, 1-Bo'zsuv, 2-Bo'zsuv va boshqa gidroelektr stantsiyalar qurildi.

Energetika va yoqilg'i sanoati 50-80 yillar elektr energiyasi tarmog'i kengaytirildi.

Sirdaryo, 2-Angren GRESlari qurilib ishga tushirildi. 1985 yilda O'zbekiston elektrostantsiyalarining umumiy quvvati 9,9 mln, kilovatdan ortdi. Shu yili 47,9 milliard kilovatt-soat, ya'ni 1940 yilga nisbatan 100 baravar, 1950 yilga nisbatan 18 baravar ko'p elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Elektr uzatgich liniyalari qurilishi kengaydi.

50-80-yillarda temir yo'l transporti ancha rivojlandi. 50-yillarda uzunligi 627 km bo'lgan Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'li qurildi va Quyi Amudaryo shahar va tumanlari O'zbekistonning boshqa hududlari hamda Ittifoq markazi bilan temir yo'l orqali bog'landi. 1962 yilda qurilgan, uzunligi 280 km bo'lgan Navoiy-Uchquduq temir yo'li yangi topilgan konlarni sanoat markazi bilan bog'ladi.

Mirzacho'l, Jizzax, Qarshi cho'llarida yangi erlarni o'zlashtirish bilan bog'liq ravishda 1962 yilda Jizzax- Mehnat (133 km), 1970 yilda Samarqand-Qarshi (144 km) temir yo'llari qurildi va yangi tashkil etilgan xo'jaliklar Respublika markazi va sanoat markazlari bilan qisqa masofada tutashtirildi. 1974 yilda Termiz-Qo'rg'ontepa (218 km), 1975 yilda Taxiatosh-Nukus (13 km) temir yo'llari qurilib ishga tushirildi va Qoraqalpog'iston poytaxti respublikaning temir yo'l tarmog'i bilan bog'landi.

2.2. Mustaqillik yillarida Sirdaryo viloyatida amalga oshirilgan islohotlar va uning natijalari

Sirdaryo viloyati Mirzacho‘l markazida joylashgan bo‘lib, viloyat markazi Guliston shahri. Sirdaryo viloyati shimolda Qozog‘iston, janubda Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh.

Mustaqillik yillarida respublikamizda erishilgan yutuqlarga bizning Sirdaryo viloyatimiz ham o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

Respublikamiz istiqloлга erishganidan so‘ng Sirdaryo viloyatida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Viloyatda 12678 kichik korxona, mikrofirma, 35 qo‘shma korxona bor. Qo‘shma korxonalardan O‘zbekiston-Rossiya «Turkiston—S» (konditer mahsulotlar ishlab chiqaradi), O‘zbekiston-Chexiya «Lechiva» farmsanoat qo‘shma korxonasi (tibbiy spirt, dori-darmon tayyorlaydi), chet el parrandachilik firmasi, O‘zbekiston—Avstriya «Sirdaryo», «Lola-model» (trikotaj buyumlar ishlab chiqaradi), «Sarbonteks» (tibbiy bint, doka, jarrohlik salfetkalari), O‘zbekiston—Eron «Sayxun Paya» (tomat pastasi ishlab chiqariladi), O‘zbekiston-Xitoy «Paxtakor LTD»(issiqxona), «Oqoltin PMB (paxta tolasi ishlab chiqaradi) va boshqa korxonalar, samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. 9 paxta tozalash zavodi, Sirdaryo issiqlik elektr stantsiyasi, Farhod GES, «Momiq», «Zilola», «Shuhrat», «Gulistonnon», «Xovosdon», «Oqoltindon» aksiyadorlik jamiyatlari, «Sayxunsut» xususiy korxonasi, «Bunyod» korxonasi (temir-beton buyumlar ishlab chiqaradi) va boshqalar ishlab turibdi.

Qishloq xo‘jalik, paxtachilik, g‘allachilik, pillachilik, mevachilik, sabzavot-polizchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. 7472 fermer xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatadi. Ekin maydonlariga paxta, g‘alla, sholi, sabzavot, poliz, kartoshka, yem-xashak ekinlari, shuningdek, sug‘oriladigan yerlarga beda,

no'xat, mosh, kunjut, tariq, loviya, kungaboqar va boshqalar ekiladi. Bog'dorchilik va tokchilik ham rivojlangan. Guliston va Xovos tumanlari sabzavot va poliz ekinlari ekiladigan asosiy joylardir. Viloyatdagi xususiy va jamoa xo'jaliklarida qoramol, qo'y va echki, parranda, shuningdek, yilqi boqiladi. 2 ta baliqchilik xo'jaligi mavjud.

Viloyat hududidagi temir yo'l uzunligi 172 km, qattiq qoplamali avtomobil yo'llari uzunligi 1,6 ming km. Viloyat hududidan Toshkent-Kitob, Toshkent—Nukus, Toshkent-Buxoro, Toshkent—Termiz, Toshkent—Samarqand, Toshkent—Andijon, Toshkent—Xovos poyezdlari o'tadi. Toshkent-Samarqand, Toshkent-Guliston elektr poyezdlari qatnovi yo'lga qo'yilgan. Katta O'zbekiston trakta hamda Sirdaryo viloyati orqali Toshkentdan viloyatlar markazlariga qatnaydigan avtobuslar o'tadi. Bundan tashqari viloyat markazi bilan tuman markazlari o'rtasida avtobuslar qatnaydi.

Viloyatda 308 umumiy ta'lim maktabi, 14 ta ixtisoslashtirilgan maktab, 14 musiqa va san'at, 22 sport maktablari, 2 akademik litsey, 22 kasb-hunar kolleji, Guliston universiteti faoliyat ko'rsatadi. «Mirzacho'lni o'zlashtirish tarixi muzeyi», 198 jamoat kutubxonasi, 103 klub va madaniyat uyi, teatr, viloyat ma'naviyat va ma'rifat markazi, xalq ijodiyoti va madaniy ma'rifiy ishlar viloyat markazi, Guliston san'at bilim yurti, 2 ta madaniyat va istirohat bog'i, «Sirdaryo navolari» ashula va raqs ansambli va boshqalar bor.

Viloyatda 32 kasalxona 10 tug'ruqxona, 131 ambulatoriya, poliklinika, 130 qishloq vrachlik punkti, 108 dorixona bor. Guliston shahrida respublika shoshilinch tibbiy yordam markazining bo'limi ishlab turibdi. Uning 9 ta tumanda bo'limlari tashkil etilgan.

Sirdaryo viloyati sportchilari sportning turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etmoqdalar. Shulardan kikboksing, kurash, belbog'li kurash, boks,

akademik eshkak eshish, armrestling, taekvondo, yengil atletika, shaxmat, shashka, karate, velosport va boshqa turlari bo'yicha har xil turdagi medal sovrindorlari bo'lishdi. 2003 yilda viloyat sportchilari 6 ta jahon, 16 ta xalqaro, 40 ta dan ortiq respublika musobaqalarida qatnashib, munosib o'rinlarni egallashdi. Viloyatda tennis bo'yicha xalqaro «Fyuchers» turnirini o'tkazish an'anaga aylangan. 22 bolalar va o'smirlar, Guliston shahrida Olimpiya o'rinbosarlari bolalar va o'smirlar maxsus sport maktablari faoliyat ko'rsatadi. «Alpomish» sport majmui, «Boks» saroyi, «Yoshlar sport markazi», tennis kortlar, 11 suzish havzasi, stadionlar va boshqa sport inshootlari mavjud.

Viloyat sanoat sohasining asosiy turlarini mamlakat elektr energiyasining to'rtidan bir qismini ishlab chiqaradigan Sirdaryo GRESi va Farhod GESi faoliyat ko'rsatmoqda. Undan tashqari paxta tozalash zavodlari, "Gulistonekstraktyog" hissadorlik jamiyati, "Xovosdon" va "Oqoltindon" kombinatlari, "Sarbonteks" qo'shma korxonasi, "Bobur" parrandachilik qo'shma korxonasi va boshqa korxonalar nafaqat viloyatimiz, balki respublikamiz ichki va tashqi bozorini xalq iste'moli mollari bilan to'ldirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda.

Agar 2005 yilning 1-yarim yiliga nisbatan yalpi ichki mahsulot hajmi 110,8 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 45,6 foizga, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi 35,1 foizga, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,7 foizga, kapital qo'yilmalar hajmi 39,1 foizga, pudrat ishlari hajmi 27,2 foizga, chakana tovar aylanmasi hajmi 8,1 foizga, pullik xizmat 24,1 foizga, shu jumladan, maishiy xizmat ko'rsatish hajmi 33,7 foizga ko'paygan bo'lsa, 2010 yilning birinchi yarim yillik yakuni bo'yicha viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, viloyatda yalpi hududiy mahsulot 11,2 foizga o'sdi.

Sanoat korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilinishi natijasida sanoat mahsulotlari hajmining 10 foizga, jumladan xalq iste'moli tovarlari hajmining 2,2 foizga o'sishiga erishildi. Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshiralayotgan islohotlar yildan yilga o'z samarasini bermoqda.

Jumladan, joriy yilning 6 oyi mobaynida 237,4 mlrd. so'mlik yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,0 foizni tashkil etdi yoki belgilangan prognozga nisbatan 8,2 foizga ko'p bo'ldi. (prognoz 104,8%)

Joriy yilning 6 oyi maboynida 148,0 mlrd. so'm kapital qo'yilmalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,0 foizni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmi 53,6 mlrd. so'mni yoki 128.6 foizni tashkil etdi.

Viloyat aholisini, ayniqsa, qishloq aholi turmush darajasini oshirish maqsadida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, joriy yilda dastur asosida 19 ta aholi punktlariga (33,5 ming kishi) ichimlik suvi ta'minoti yaxshilash belgilanib, amalda 6 oy davomida 14 ta aholi punktlarida (12,6 ming kishi) ichimlik suvi ta'minoti yaxshilandi.

Viloyat bo'yicha 168,8 mlrd. so'mlik chakana tovar aylanmasi amalga oshirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,0 foizni tashkil etdi. Bu o'z navbatida aholi turmush darajasini o'sishidan dalolat bermoqda. Aholiga 45,7 mlrd. so'mlik pullik xizmatlar ko'rsatilib o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,2 foizni tashkil etdi. Viloyatda jami 173,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,6 foizni tashkil etdi.

Joriy yilning 6 oyi davomida jami 59,2 mln. AQSH dollari miqdorida eksport amalga oshirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 193,4 foizni, shu jumladan hududiy eksport hajmi 2,0 barobarga o'sdi.

Viloyatdagi ro'yxatga olingan 15345 ta korxonadan 14857 tasi kichik korxona va mikrofirmalardir. Xorijiy investitsiya ishtirokida 48 ta qo'shma korxona tashkil etilgan. Ularning viloyat yalpi ishlab chiqarishidagi salmog'i yildan yilga ortib bormoqda.

Viloyat iqtisodiyotining asosiy qismini agrar sektor tashkil etadi. Sirdaryo viloyati qishloq xo'jaligi paxtachilik, g'allachilik, pillachilik, mevachilik, sabzavot-polizchilik, parrandachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan.

Mustaqillik davrida asosiy e'tibor fermer xo'jaliklarini tashkil etishga qaratilganligi munosabati bilan viloyatdagi mavjud 100 dan ortiq xo'jalik to'liq fermer xo'jaliklarga aylantirilib, bugungi kunda 8365 ta fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida islohotlarning yanada chuqurlashtirilishi natijasida pilla, g'alla, paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning barqaror o'sishiga erishilmoqda. 2010 yilning 6 oyi mobaynida qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan sabzavot 32926 tonna (121,3%), kartoshka 14177 tonna (109,6%), poliz 12700 tonna (112,8%), meva 2800 tonna (144,4%), go'sht 20908 tonna (107,0%), sut 91841 tonna (106,8%), tuxum 25083 ming dona yetishtirilib (109,9%), aholiga va qayta ishlash korxonalariga yetkazib berildi. Bu davr ichida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasidagi kooperatsiyani kengaytirish borasida viloyatda 1408 ta kasanachilik asosida ish o'rinlari yaratildi. Bu belgilangan prognozga nisbatan 14,8 foizga ko'p bo'lib ular tomonidan 111,6 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Shuningdek, shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirish bo'yicha 2010 yil birinchi yarmida yirik shohli qora-mollar uchun 74 ta kam ta'minlangan oilalarga 115,9 mln so'mlik imtiyozli kreditlar berildi. Shuningdek kam ta'minlangan ko'p bolali oilalarga 264

bosh bepul qora-mol berilib, ularning qo'shimcha daromad olishiga va turmush darajasini yaxshilanishiga sharoit yaratildi.

Mustaqillik yillarida viloyatda qurilish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Viloyat hududidan o'tgan «Toshkent-Termiz» Katta O'zbek Trakti jahon andozalari talablariga mos ravishda qayta ta'mirlandi. Mustaqillik bosh maydonining rekonstruksiyasi, Xotira maydoni, Markaziy va tijorat bank binosi, Birja va Biznes markazi, Sharq me'morchilik andozalariga mos ravishda qurilgan «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi, akademik litseylar, «Kemping» tipidagi majmualar, supermarketlar, ko'p qavatli turar-joy binolari, «Sog'lomlashtirish markazi», «Alpomish» sport saroyi, Boks saroyi, Suzish havzasi, «Delfin» sinxron suzish havzasi va bir qancha sport komplekslari, kasb-hunar kollejlari istirohat bog'lari, mustaqillik munosabati bilan ko'plab mahalla guzarlari hamda barcha shahar va tuman markazlaridagi dehqon bozorlarining qaytadan qurilishi shahar va tuman markazlarining ko'rkam bo'lishiga zamin yaratdi.

2006 yilda Guliston shahrida yangi zamonaviy temir yo'l vokzali ishga tushirildi. 2009 yilda Guliston shahrida maktab o'quvchilarining "Umid nihollari" sport musobaqalarining o'tkazilishi munosabati bilan viloyatdagi barcha katta yo'llar, sport maydonchalari va o'yingohlar ta'mirlandi, katta obodonchilik ishlari bajarildi. "Alpomish" sport kompleksi to'liq ta'mirlandi, 4-TIP sport inshooti qurib foydalanishga topshirildi. Markaziy o'yingoh zamon talabi asosida kengaytirildi.

Hozirgi kunda Sirdaryo viloyatida 305 ta maktab, 4 ta akademik litsey, 34 ta kasb-hunar kollejlari va Guliston davlat universiteti faoliyat ko'rsatmoqda, ularda 173996 nafar o'quvchi va talabalar tahsil olmoqda, besh mingdan ortiq o'qituvchilar mehnat qilishmoqda.

Qishloq joylarni ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturi bo'yicha 283 ta aholi punktlari ichimlik suvi bilan 90,8 % ga, tabiiy gaz bilan 84,1 % ga ta'minlandi.

Viloyatda tashqi iqtisodiy faoliyat yildan-yilga o'sib bormoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilishga katta e'tibor qaratildi. Eksport mahsulotlarining asosiy qismini paxta tolasi tashkil etadi. Bugungi kunga kelib viloyatda 48 ta chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 28 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Viloyat jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarishida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning salmog'i 8,2 foizga, mahsulot eksportida 5,8 foiz va mahsulot importida 38, 6 foizga to'g'ri kelmoqda.

Ijtimoiy sohada asosiy e'tibor aholining turmush darajasini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ularga budjetdan ajratilgan mablag' yildan-yilga o'sib bormoqda.

Viloyatda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturining ijrosi bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik davrida 145 ta qishloq vrachlik punktlari ishga tushirildi. Ular Jahon tiklanish va taraqqiyot banki krediti hisobiga qariyb 4,5 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan qiymatdagi eng zamonaviy tibbiy jihozlar bilan to'liq jihozlandi. Viloyat shifoxonasining negizida 200 o'rinli aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazi tashkil etildi. Guliston shahrida 100 o'rinli tashhis bo'limi, shuningdek, 250 o'rinli poliklinikaga ega bo'lgan «Sog'lomlashtirish markazi» foydalanishga topshirilib, Finlyandiyaning «Mediko-Medikal» firmasining qariyb 3 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan zamonaviy tibbiy jihozlari bilan ta'minlandi. 120 o'rinli viloyat bolalar shifoxonasi, «Ona va bola skrining markazi» foydalanishga topshirildi.

Sport sohasida viloyat sportchilari katta yutuqlarga erishmoqdalar. Bugungi kunda viloyatimizda sportchilarga va aholiga 11 ta suzish havzasi,

12 ta o'yingohlar, jami 1476 sport inshootlari va maydonlari xizmat ko'rsatmoqda. Mustaqillikning o'tgan 19 yili davomida viloyat sportchilari Olimpiada o'yinlari, jahon, qit'a, xalqaro va respublika musobaqalarida yuqori saviyada qatnashib, munosib o'rinlarni egallashgan. Har 4 yilda o'tkaziladigan yozgi Olimpiada o'yinlarida, shu jumladan 1996 yilda 2 nafar, 2000 yilda 2 nafar va 2004 yilda Afina shahrida bo'lib o'tgan musobaqalarda 4 nafar sportchimiz ishtirok yetdi. 2009 yil avgust oyigacha 42 nafari jahon chempionatida, 6 nafari Osiyo o'yinlarida, 60 nafardan ortig'i, Osiyo chempionatida, 130 nafari xalqaro turnirlarda hamda 1300 nafardan ortig'i respublika musobaqalarida g'olib bo'lishgan va sovrindorlar safidan joy olishgan.

2010 yilda Andijon shahrida oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida bo'lib o'tgan "Universiada – 2010" sport musobaqalarida Sirdaryo viloyati jamoasi faxriy sakkizinchi o'rinni oldi va 1 ta oltin, 4 ta kumush, 7 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Sirdaryo viloyatida viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olingan 31 ta gazeta, 1 ta jurnal, 2 ta televideniye faoliyat ko'rsatmoqda. Viloyatda Olim Xo'jayev nomli musiqali drama teatri, «O'zbeknavo» gastrol konsert birlashmasi, «O'zbekraqs» viloyat bo'limlari, «Sirdaryo navolari» dastasi, viloyat xalq ijodiyoti va ma'naviyat-targ'ibot markazi, «Mirzacho'lni o'zlashtirish tarixi» muzeyi, Badiiy Akademiyaning viloyat bo'limi, 105 ta klub muassasalari, 14 ta bolalar musiqa va san'at maktablari, madaniyat va istirohat bog'lari xalqimizga xizmat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda viloyatda 2 ta muzey, 163 ta kutubxona – ARM, 1152 ta sport maydoni, 16 ta videosalonlar, 18 ta kompyuter markazlari, 43 ta madaniyat saroylari faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Sirdaryo viloyati Mustaqillik sharofati tufayli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib, xalq farovonligi yuksalib, yildan-yilga gullab-yashnab bormoqda.

XULOSA

Mavzuni o'rganish jarayonida tarixiy manbalardan olingan ma'lumotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida umumiy yakun yasali, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Respublikamiz mustaqilligi sharofati bilan milliy davlatchiligimiz tarixini, boy madaniy merosimizni chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik.

2. O'zbekiston tarixini manbalar asosida xolisona, haqqoniy yoritishga yosh avlodni davlatchilik, moddiy-ma'naviy madaniyatimiz tarixi bilan vatanparvar – komil insonlar darajasiga yetkazib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

3. Sirdaryo viloyati Mirzacho'l markazida joylashgan bo'lib, u 1963 yilda tashkil etilgan. Viloyat markazi Guliston shahri. Sirdaryo viloyati shimolda Qozog'iston, janubda Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh. Sirdaryo viloyatining yer maydoni 4,3 ming kvadrat kilometr bo'lib, 700 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi.

4. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i — paxtachilik. 790 dan ziyod fermer xo'jaligi ishlab turibdi. Sug'oriladigan yerlariga paxta, don, beda, sabzavot va poliz, yem-xashak ekinlari ekiladi. Mevazor va tokzorlar barpo etilgan. Tuman jamoa va xususiy xo'jaliklarida qoramol, qo'y va echki, parranda, yilqi boqiladi.

5. Ustrushona xududida o'zbek tilida so'zlashuvchi qorluq-chigil, qipchoq va o'g'iz laxzalariga xos urug'-qabilalarining qadimdan yashaganligini ko'rsatadi. Zomin tumani aholisining shakllanish tarixini tahlil etar ekan elshunos olim Tursunboy Salimov mazkur xududga qadimdan o'rnashgan qabilalar tarzida o'zbek turklari va qorluqlarni e'tirof etadi.

6. Turkiston tog‘ tizmalarida old qismida Xo‘janddan Zominga qadar bo‘lgan qishloqlar tarkibida Qipchoq, Xoldorqipchoq kabi etnonimlarning mavjudligi qipchoq etnik guruhlarining o‘timishidan dalolat beradi.

7. Sirdaryo viloyatining madaniy hayoti madaniy-maorif, sog‘liqni saqlash va sport. Sirdaryoda 1914 yilda bitta, 1916 yilda 13 ta rus-tuzem maktabi faoliyat ko‘rsatdi. 1917—23 yillarda maktablar soni 52 ta, o‘quvchilar soni 2030 ga yetdi.

8. Respublika qishloq xo‘jaligida paxta etishtirish salmog‘ining ortib borishi davomida o‘zbek halqi nomini ne zamonlar dunyoga mashhur qilgan muhim ziroatchilik sohalari: shirin-sharbat meva, poliz, sabzavot, sohibkorlik, donchilik va boshqa mahsulotlar etishtirish asta-sekin kamayib, qisqarib bordi. Eng achinarlisi shuki, xalqimizning azaliy mashg‘uloti samarasi bo‘lgan bu xil mahsulotlarning ko‘pi bora-bora respublikamizga chetdan keltiriladigan bo‘lib qoldi.

Tavsiyalar

Sirdaryo viloyati sovet mustamlakachiligi va mustaqillik yillarida mavzusini o'rganish quyidagi taklif va mulohazalarni bayon etish imkonini berdi:

1. Sirdaryo viloyati davlatchiligi va o'lka tarixini o'ganishda eskicha fikrlash tarzlarini ongimizdan chiqarib tashlash.
2. Sirdaryo viloyati sovet mustamlakachiligi va mustaqillik yillarini o'zida aks ettirgan hozirgi talabga mos ilmiy-ommabop tarzdagi manbalar yaratish.
3. Sirdaryo viloyatining sovet mustamlakachiligi va mustaqillik yillaridagi tarixini bosqichma-bosqich o'rganib, uni tarixiy nuqtai nazardan tahlil etish.
4. Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati tarixini har tomonlama qiyosiy tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: "O'zbekiston", 2012.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat mafkura. T.7. Toshkent, O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. Toshkent, O'zbekiston. 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. T.O'zbekiston, 2000.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish — mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. T., O'zbekiston, 2011.
8. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T., "Sharq", 2000.
9. Abul G'oziy. Shajarai turk.-T., "Cho'lpon", 1992.
10. Asqarov A. A. Sopollitepa.-T., 1973.
11. Asqarov A. A., Abdullayev B. Jarqo'tan.,-T.,-1983.
12. Asqarov A.A. Eng qadimgi shahar.-T., 2001.
13. Asqarov A.A. Mustaqillik yillarida tarix, arxeologiya va etnologiya. II. O'NUz. 1996, № 6.
14. Asqarov A.Eng qadimgi shahar.-T.,2001.
15. Azizxo'jayev A. Davlatchilik va madaniyat. T., Sharq, 1998.
16. Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Т., «Фан» 1992.
17. Eshov B. Qadimgi Osiyo shaharlari tarixi. T., 2006.
18. Ziyoyev X.Tarix-o'tmish va kelajak ko'zgusi. T., G'.Gulom, 2000.
19. Sagdullayev A. S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarida.-T., 1996.

20. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В.Лунин Т., «Фан» 1984.
21. Литвинский Б.А. Проблема этнической истории Средней Азии II-I тыс. до н.э. (Среднеазиатский аспект арийской проблемы).// Этнические проблемы истории центрально-Азии и древности.-М., 1985.
22. Массон В.М. Городские центры раннеклассовых обществ. История и археология Средней Азии.-Ашхабад, 1978.
23. Mavlonov O'. Qadimgi yo'llarning urbanizatsiya va shaharsozlik madaniyati rivojida tutgan o'rni. "O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: tarix va hozirgi zamon" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari T., 2007.
24. Сарианиди В.И. Бронзовый век Маргианы.//КСИА. Вып.188.-М.,1986.
25. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.-T.,1996 va boshqalar.
26. Omonjulov T., O.Nazarov «Sirdaryo havzasi qadimgi shaharlari tarixidan. // "O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: Tarix va hozirgi zamon" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.T., 2007.
27. Omonjulov T. Qadimgi Osrushona –eramizdan avvalgi va eramizning I minginchi yilliklarida. Mirzacho'lni kompleks o'zlashtirishning 35-yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy anjumanning hujjatlari. 5-dekabr 1991 yil. Guliston, 1992.
28. Пьянков И.В. Бактрия в античной традиции. Душанбе. Дониш. 1982.
29. Usmonov Q., Saodiqov M. Va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. "Iqtisod-moliya", 2006.
30. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T., 2001.
31. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. T.1998.
32. O'zbekiston Miliy Ensiklopediyasi.T.8.T. O'z.M.E nashriyoti. 2004. 704 b.

33. O‘zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T., “Qomuslar bosh tahririyati”. 1997.
34. O‘zbekiston tarixi (qisqacha ma’lumotnoma). T., Sharq, 2000.
35. O‘zbekiston tarixi. T., Yangi asr avlodi. 2003.
36. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. T.: Sharq, 1999.
37. Xodjayov T.K. Xodjayova G.K. «O‘zbek xalqining etnik tarixi». T.1995.
38. Shoniyoov K. «O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni» T., 2001.

Internet saytlari.

39. [http: // sirdaryo.uz](http://sirdaryo.uz)
40. [http: // history.ru](http://history.ru)
- 41.[http: // www.ukans.edu](http://www.ukans.edu)
- 42.[http: // www.bibliotekar.ru](http://www.bibliotekar.ru)
- 43.[http: // Ziyonet](http://Ziyonet) axborot tarmog‘i –www.Ziyonet.uz.




Sirdaryo viloyati maʼrifat markazi binosi. (Mustaqillik yillarida qurilgan bino)



Sirdaryo viloyati Markaziy maydonida oʻrnatilgan soat



Sirdaryo viloyati. Yoshlar markazi.



Sirdaryo viloyati xaritasi.